



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 1-iyul, № 133 (9028)

Seshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## YANGI O'ZBEKISTONNI BUNYOD ETAYOTGAN OLTIN AVLOD

Mamlakatimizda 30-iyun — Yoshlar kuni keng nishonlandi



30  
IYUN  
YOSHLAR  
KUNI

YANGI O'ZBEKISTON  
YOSHLARI,  
BIRLASHAYLIK!

Asosiy bayram tadbirlari poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan bu yerga Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari, yurtimizning turli hududlaridan kelgan iqtidorli

yoshlar hamda ularning ustoz-murabbiylari jam bo'lgan.

Bayramona kayfiyatdagi yigit-qizlar ko'zlarida azmu shijoat, yuzlarida tabassum, quvonch va shodumonlik barq uradi...

O'zbekiston yoshlarini tabriklash va qo'llab-

quvvatlash uchun bu yerga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi.

Muhtasham markaz binosiga kiraverishda yoshlarning turli sohalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari, ilmiy izlanishlari natijalari, innovatsion g'oya va ishlanmalari, ixtiroolari taqdimot qilindi.

Yigit-qizlarning "yashil" iqtisodiyot, kreativ sanoat, tadbirkorlik va IT sohasidagi ilg'or ishlanmalari e'tiborni tortadi. Xususan, "Yosh innovatorlar" ko'rgazmasida muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, uchuvchisiz qurilmalar namoyish

etildi. "Raqamli "yashil" tashabbuslar" maydonchasida ekologiya, muqobil energetika, qishloq xo'jaligi kabi sohalarga oid ishlanmalar ko'rsatildi. "Kreativ iqtisodiyot" bo'limidan hunarmandlik, dizayn, tasviriy san'at, video va produserlik faoliyatidagi yutuqlar o'rin oldi. "Yoshlar tadbirkorligi va startaplar" maydonchasida ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatli loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Ko'rganda ko'z quvnab, qalb faxr-iftixorga to'ladigan bu ilmiy yutuqlar, ilg'or ishlanmalar kelajagimiz egalarning yuksak bilim va salohiyatidan, ular dunyoda hech kimdan kam emasligidan dalolat. Masalan, tashkentlik Sayfullo Qodirov ekin maydonlarini raqamli xaritalash va yuqoridan dori sepish imkonini beruvchi dronlar yasagan. Xorazmlik Lobar Abdullayeva onkologik kasalliklarga sun'iy intellekt orqali tashxis qo'yishga mo'ljallangan "AI Scan" dasturini ishlab chiqqan. Qoraqalpog'istonlik Qumara Sagidullayeva esa quyosh energiyasida yuruvchi kichik traktor ixtiro qilgan. Bu ishlanmalarning barchasi bugungi zamon talablariga mos bo'lib, ular ishlab chiqarishga tatbiq etilsa, iqtisodiyotimiz rivojiga naqadar samarali ta'sir ko'rsatadi!

Endi o'ylab ko'ring: O'zbekiston yoshlari bir vaqtlar kunini, bo'sh vaqtini, umrini nimaga sarflardi? Bugun-chi? Hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topib borayotgan navqiron avlod vakillarining ilm-fan, ixtirochilik sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlari — bu savolning lo'nda va aniq javobi.

Prezidentimiz ushbu ko'rgazmalar bo'yab yurib, ulami ko'zdan kechirdi. Yoshlar bilan dildan suhbatlashdi.

(Davomi 3-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Qadri farzandlarim!

Avvalo, siz, aziz o'g'il-qizlarimni, sizlarning timsolingizda butun O'zbekiston yoshlarini qutlug' ayyom — Yoshlar kuni bilan chin qalbidan samimiy muhabbat bilan qabul etaman.

Sizdek navqiron avlod vakillarini bugun mana shunday a'lo kayfiyatda ko'rib turganimdan behoya xursandman.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz tez sur'atlar bilan o'sib, barcha sohalarda imkoniyatlarimiz ortib borayotganida, hech shubhasiz, siz, yoshlarning ham munosib hisshangiz bor.

Bir so'z bilan aytganda, bizning bebaho boyligimiz ham, kelajak uchun eng katta dividendimiz ham, yoshlar, desak, to'g'ri bo'ladi. Bilagida kuch-g'ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo'sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko'rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi.

Katta-katta davlatlar, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari bugun bizga nega ishonmoqda? Nega milliardlab dollar investitsiyalar kiritmoqda? Bu, albatta, bejiz emas. Chunki hamkorlarimiz yoshlarimizning ilm-fan, ta'lim, IT, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlarini ko'rib, salohiyatimizga baho bermog'ida, ertangi kunimiz poydevori mustahkam ekaniga ishonch hosil qilmoqda.

Biz islohotlarimizni boshlagan ilk kunlardan oq "ilm — tarbiya — innovatsiya" zanjirini yaratishga kirishdik. Bu yo'l'dagi harakatlarimiz bugun aniq natijalar bermog'ida.

Mana, bir misol. O'tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliyog'hlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Bilimli yoshlarimiz ilk bor TOP-5 talikdagi oliyog'hlarga kirib, tarixiy natija qayd etganlari ham barchamizni quvontradi. Bugungi kunda 30 nafar yoshlarimiz dunyoning TOP-10 talik oliyog'hlarda, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 talikdan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

Ushbu muhtasham zalda o'tirgan Jasurbek Umarov — Garvard universitetiga, Ruxshona Sobirova — Pensilvaniya, Asilbek Ashurov — Chikago universitetiga bu yil 100 foiz grant asosida o'qishga kirgani ta'limdagi islohotlarimiz naqadar natijador bo'layotganiga yaqqol dalildir.

Yaqinda butun yurtimizda barchamiz uzoq kutgan katta futbol bayrami bo'lib o'tdi. Xalqimizning 34 yillik orzusi ushaldi — milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Yaqin-yaqingacha umrini paxta dalasida o'tkazgan oddiy oila farzandlari ilmda, sportda, boshqa sohalarda bunday yuksak marralarni egallashini tasavvur qilish ham qiyin edi. Biz yoshlarimiz uchun sharoit yaratdik, ular bundan unumli foydalanib, baland cho'qqilarni zabt etmoqda.

Bugun sizlar kabi zehni o'tkir, mehnatsevar va fidoyi farzandlarimga qarab, orangizdan fizika, kimyo, tibbiyot, iqtisodiyot, adabiyot bo'yicha yangi Xorazmiylar, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek va Navoiylar yetishib chiqishiga albatta ishonaman. Birinchi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz.

**Sizlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!** Fursatdan foydalanib, mana shu quvonchli ayyomda Vatanimiz ravnaqi yo'lida intilish, ilm olish va mehnat qilishdan charchamaydigan barcha yoshlarimizga, bilimli, tarbiyali va sog'lom farzandlarni kamolga yetkazayotgan ota-onalarga, katta hayotga qadam qo'yishlarida yoshlarga eng yaqin maslahatchi bo'layotgan hurmatli ustoz va murabbiylarga samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Aziz o'g'il-qizlarim! Hozirgi vaqtda dunyo qanday notinch, qanday murakkab bo'lib borayotganini ko'rib turibmiz. Tinchlik — eng buyuk ne'mat, inson qadri va adolat — eng oliy qadriyat ekanini har qachongidan ham chuqur his etmoqdami.

Alisher Navoiy bobomizning "Bilim xazinasi yoshlikda to'pla" degan so'zlarida albatta juda chuqur ma'no bor. Chindan ham, ilm va ma'rifat bilan qurollangan, vatanparvar xalq har qanday sinovlardan munosib o'ta oladi. Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik jihatdan savodxon yoshlari ko'p bo'lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot, o'zaro jipslik hamisha barqaror bo'ladi.

Yoshlarimizga sifatli ta'lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o'rgatish, hayotda munosib o'rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish — eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, hududini namunali qilgan viloyat va tumanlarimiz ko'p. Misol uchun, yosh tadbirkorlarimiz tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik oboroti 100 milliard so'mdan oshdi.

Ilgari bu borada faqat Toshkent shahri yakka holda peshqadamlik qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib Toshkent viloyati, Samarqand, Andijon, Namangan va Farg'ona yoshlarining biznesdagi natijalari ham poytaxtdan qolishmayapti.

Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm yoshlar bandidligini ta'minlash bo'yicha ilg'or hududlarga aylandi. Yoki yoshlarning oliyog'ha kirish ko'rsatkichi bo'yicha Surxondaryo bir yil davomida 11-o'rindan 4-o'ringa ko'tarilib, katta sakrashga erishdi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlari ham bu borada yaxshi natija ko'rsatmoqda.

Ikki yil oldin xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta hududdan 45 nafar o'quvchi sovrin olgan bo'lsa, o'tgan 6 oyda ularning safiga Jizzax, Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari o'quvchilari ham qo'shilib, jami 166 ta medal qo'lga kiritildi.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming nafar yosh o'qitildi. Ayniqsa, Xorazm, Qashqadaryo va Samarqandda yoshlarimiz IT sohasida katta daromad topishga erishayotgani e'tiborlidir.

Boshqa bir misol. O'tgan yili 150 mingdan ziyod yoshlarimiz xalqaro til sertifikatlarini oldi. Bu — 2023-yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p. Xorijiy tillarni mukammal bilish (Si-1) bo'yicha Toshkent shahri, Farg'ona, Namangan, Buxoro va Samarqand viloyatlari yoshlari ancha ilgirab ketganini ta'kidlash lozim.

Katta salohiyatga ega bo'lgan tumanlar yoshlari tilga va zamonaviy kasblarga o'rgatib, ishli qilish, oliy ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha Bektemir, Zafarobod, Qorovulbozor va Arnasoydan o'rnak olishi kerak.

Shu o'rinda 2 ta masalaga alohida urg'u berib o'tmoqchiman.

**Birinchi**, albatta, yoshlarning tilini yoshlar tushunadi, ular bir-biridan o'rnak oladi, bir-biriga motivatsiya beradi.

Shu bois 9 mingdan ziyod mahallada yoshlar yetakchilarini tayinladik. Ular uch yil davomida ko'p narsani o'rgandi, yetarli tajriba orttirdi. Endi ular maktab, texnikum, til va kasb markazlari bilan ham ishlashni o'rganishlari lozim.

Yoshlar yetakchilari har hafta maktab direktorlari, sinf rahbarlari, ota-onalar bilan uchrashib, qo'shimcha til va kasblarga qiziqishi, ishlashga xohishi bor o'quvchilarni aniqlaydi, hokim yordamchilari ko'magida o'z hududidagi korxonalar, til va kasb markazlari bilan gaplashib, o'quvchilarni ularga bog'lab beradi, sport va fanlarga qiziqadiganlarni to'garaklarga jalb etadi. Ushbu tadbirlar uchun "yoshlar daftari" orqali berilgan mablag'larni ishlatadi.

**Ikkinchi**, mahallalarimizda 167 ming nafar uyushmagan yoshlarimiz, tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik qilgan 17 ming o'quvchi borligi hammamizni o'ylantirishi kerak.

Ayniqsa, ko'p sohalarda ilg'or bo'lgan Andijon, Xorazm, Qoraqalpog'iston va Buxoroda bunday yoshlarning ulushi yuqoriligi ularga albatta yarashmaydi.

Keyingi paytda yoshlar orasida giyohvandlik, ruhiyatga ta'sir qiladigan "tabletkalar" iste'mol qilish tarqalib borayotgani mudhish bir balo, desak, to'g'ri bo'ladi.

Shu o'rinda yangi saylangan mahalla raislariga murojaat qilmoqchiman. Mahalladagi tinchlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, sog'lom muhit kimga bog'liq? Avvalo, sizlarga bog'liq. Mahalla raisi faqatgina "oqsoqol" emas, yoshlarning eng yaqin do'sti, sirdoshi, ko'makdoshi. Mahalla raisi — bu mahallaning vijdoni. Mahallada bitta bo'lsa ham bolaning noto'g'ri yo'lga kirishi sizlar uchun favqulodda holat bo'lishi kerak.

Shuning uchun har bir bola haqida, uning taqdiri, kelajagi haqida avvalo sizlar ko'proq qayg'urishingiz lozim. Mahalla raislari yoshlar bilan tez-tez muloqot qilib, ishsiz yurganini mahallasidagi 10 — 20 nafar yaxshi tadbirkorga bog'lab qo'ysa, ilm olaman, IT bilan shug'ullanaman, kitob o'qiyman, sportga boraman deganiga sharoit yaratib bersa, bilasizlarmi, vaziyat qanday o'zgaradi, ota-

onalarning og'irini qancha yengil qilamiz! Bunday ezgu ishlarimiz Yaratganga ham, xalqimizga ham albatta ma'qul bo'ladi.

Sizlar bu vazifalarni uddalashingizga ishonaman. Buning uchun sizlarda bilim ham, tajriba ham, kuch-g'ayrat ham yetarli. Eng muhimi, odamlar sizlarga ishonadi, sizlarga ergashadi.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz zarur. Bolaning yomoni bo'lmaydi. Ularga kattalarning mehri, imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoit, o'ziga ishonch bo'lishi uchun motivatsiya kerak.

Misol uchun, Tadbirkorlik jamoatchilik kengashi a'zolari — 108 nafar "champion" tadbirkorimiz o'zlarining 308 ta korxonasi atrofidagi maktablarga borib, yuqori sinf o'quvchilarini kasbga qiziqtirayotgani tahsinga sazovordir. Eng muhimi, bu o'quvchilarning aksariyati kelajakda hayotini qaysi kasb bilan bog'lash haqida aniq tasavvurga ega bo'lmoqda.

**Bunday tashabbuskor, fidoyi, vatanparvar tadbirkorlar — mening qanotlarim.** Ularning ko'pchiligini bugun mana shu zalda ko'rib turibman.

Aytinglar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasbga yetaklash, ishli va daromadli qilish uchun sizlarga yana qanday sharoitlar yaratib berishim mumkin?

Azmu shijoatli tadbirkorlarimiz hokimlar bilan uchrashib, takliflarini tez kunda shakllantirib bersa, ularning barchasini ko'rib chiqishga tayyorman.

Shu bilan birga, respublikamiz bo'yicha 15 mingga yaqin o'quv va 7,5 mingga kasbga tayyorlash markazlari mavjud. So'nggi yillarda ular uchun 100 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berdik.

Fursatdan foydalanib, bunday markazlarga, ularning faollariga ham murojaat qilaman.

Sizlar hozirgi ko'rsatkichlaringiz bilan cheklanib qolmang, faoliyatni kengaytirib, zamonaviy kasblar va xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlarni bir necha karra ko'paytirib, buning uchun sizlarga yana qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib beraman.

(Davomi 2-betda).

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

< (Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Men hokimlardan bir masalani hamisha talab qilib kelaman, bundan keyin ham talab qilaman.

Viloyat va tuman hokimlari har bir bolaga o'z farzandidek qarab, ularning sog'lig'ini, o'qishi, yurish-turishi, qiziqishi va orzu-intilishlari, muammolaridan doim xabardor bo'lishi zarur. Ular yoshlar bilan muntazam muloqot platformasini yo'lga qo'yib, maktab, oliyogoh, o'quv va kasb markazlari, tadbirkorlarning boshini qovushirib, yoshlarga ko'maklashadigan yangi bir tizim yaratasa, albatta natija bo'ladi.

Bu ishlar "kampaniyabozlik"ka aylanib ketmasligi, bo'layotgan o'zgarishlarni har bir mahalladagi har bir yosh har kuni chuqur his etishi zarur.

Davlat xavfsizlik xizmati (J.Jo'rayev) buning ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatadi.

Ana shunda Yangi O'zbekistonda ta'lim olmagan, ishsiz, kasb egallamagan, bir so'z bilan aytganda, uyushmagan yoshlar degan tushunchalarning o'zi qolmaydi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xabarimiz bor, fevral oyidagi uchrashuvimizda yoshlar uchun 40 dan ziyod yangi tashabbuslarni e'lon qilib, qariyb 500 million dollar ajratdik. Yoshlar uchun, ularning istiqbol uchun bugun kiritilgan mablag', investitsiya, ertaga albatta o'n, yuz, ming barobar bo'lib qaytadi.

Sizlar ilm oling, yangi-yangi g'oyalari bering, kashfiyot va loyihalar qiling, izlanish va harakatdan charchamang! Men sizlarni doimo qo'llab-quvvatlashga tayyorman!

Bu yil 35 milliard dollarlik 8 ming 300 ta loyihani ishga tushirib, 292 mingta yangi ish o'rni yaratdik. Yana 500 mingta ish o'rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalarni boshlaymiz.

Masalan, energetikada – 20 milliard, neft-gaz va kimyoda – 11 milliard, tog'-konda – 7 milliard, elektrotexnika va avtomobilsozlikda 4,5 milliard dollarlik minglab korxonalar ishga tushirildi. Ushbu loyihalar Qoraqalpog'iston, Andijongacha, Surxondaryo Tashkentgacha – barcha hududlarda amalga oshirildi.

Ana shunday ishlarimiz boshlanishi bilan "yashil" iqtisodiyot, "yashil" energiya, raqamli geologiya, texnologik mineralar, bioinjeneriya yo'nalishlarida minglab mutaxassislar talab paydo bo'ladi. Afsuski, bunday yuqori malakali mutaxassislar o'zimizda yetishmagani bois hozirgi vaqtda ularni chetdan olib kelyapmiz.

Yangi texnologiyalar asrida kim yutadi? Faqat kreativ fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasblarni egallagan mutaxassislar yutadi. Bugun sizlardagi g'ayrat-shijoatni ko'rib turibman, albatta siz, aziz yoshlar bu korxonalarini boshqarib, katta-katta kashfiyotlar qilasing, ularga innovatsiyalarni olib kirasiz.

Shu sababli hozirdanoq bunday loyihalar bo'yicha kadrlar tayyorlashni boshlaymiz. Qadriylar!

Xabarimiz bor, yaqinda "Garvardchilar" maktabini ochish bo'yicha katta Farmonni imzoladim. Bu muassasa Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro maktab sifatida faoliyatini boshlab yubordi. Ushbu xalqaro maktabga bu yilgi 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o'quvchini saralab olib, 3 ta yo'nalishda o'qitimiz.

Hali qabul tugamasidan bitta o'ringa 275 nafar o'quvchi talabgor bo'lmoqda. Biz ushbu o'rinlarni

kelgusida bir necha karra ko'paytiramiz. Umuman, Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchi seleksiya qilinib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliyogohlariga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo'ladi.

Bugungi kunda "Ta'lim – kelajak sarmoyasi" degan ezgu g'oya jamiyatimizda katta harakatga aylangan. Nufuzli xorijiy oliyogohlarga kirayotgan barcha yoshlarimiz ham 100 foizlik grant olish imkoniyatiga ega emas. Bu tabiiy, albatta.

Yaqinda "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini takomillashirdi. Endi TOP-300 talik oliyogoga kirganlar uchun o'qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Eng avvalo, STEAM – ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlari, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalarni bir necha karra oshirayapmiz.

Biz yana bir masalani hal qildik – endi banklar TOP-300 talik oliyogoga kirgan yoshlarimizga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit beradi.

Yana bir muhim yo'nalish – sun'iy intellekt rivojlantirish bo'yicha bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va energetikani ustuvor sohalar sifatida belgilab, 100 ta loyihani amalga oshiramiz. Bu borada yana katta-katta rejalarni boshlaymiz. Bu borada yana katta-katta rejalarni boshlaymiz.

Aminmanki, bu ishlarimiz boy tariximiz va zamonaviy yondashuvlarni o'zida uyg'unlashtirib, yoshlarning yangi kreativ g'oyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizim samara berishi uchun Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturini ishga tushiryapmiz.

Shu yilning o'zida "AI Study" platformasi orqali kamida 100 ming yoshlarimiz sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganadi. Isonoman, bu yangi loyiha hisobidan sun'iy intellekt sohasida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarimiz yanada ko'payadi.

Hozir kunda maktablarimizda 19 ming 500 nafar informatika o'qituvchisi bor. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ikki oyda dunyodagi birinchi raqamli Massachusetts texnologiya institutining sun'iy intellekt ta'lim dasturini asosida o'quv dasturlarimizni yangilaydi.

Har bir viloyatdan 100 nafar informatika o'qituvchisini tanlab, bu yil Yangi O'zbekiston universitetida ushbu dasturga o'qitadi. Ushbu mentor o'qituvchilar o'z hududidagi qolgan informatika o'qituvchilarini ikki yil davomida kaskad usulida tayyorlaydi. Bu orqali besh yilda barcha maktab bitiruvchilari sun'iy intellekt bo'yicha yetarli bilim oladi.

Yana bir yo'nalishga e'tiboringizni qaratmoqchiman. "Raqamli avlod qizlari" tanlovida ta'lim, sun'iy intellekt, "yashil" iqtisodiyot, iqilm o'zgarishi kabi sohalarida 7 ming o'quvchi va talabaning 120 ta startap loyihasi tanlab olindi.

IT sohasining boshqa kasblardan ustunligi nimada, bilasizlarmi? Yaxshi kompyuter, internet va ko'nikma bo'lsa, barcha ishni uyda bajarsa bo'ladi. Bitta tikuv mashinasining puliga ozingna o'qshib, yaxshi kompyuter olib berilsa, qizlarimiz uyda ham ming dollargacha daromad topadi.

Shu bois bu yil kamida 50 ming nafar qizimizni

"Raqamli avlod qizlari" loyihasi bilan qamrab olamiz. Raqamlashtirish vazirligi (Sh.Shermatov) va Milliy bank (A.Mirsoatov) yil yakunigacha IT va til sertifikatlari bor yoshlarni kafolatli ishga joylaydigan tizim yaratadi.

Biz startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizim yaratdik. Ularni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritildi. Bu raqamni 1 milliard dollarga yetkazamiz. Endi bu ishlarni maktabdan boshlaymiz. O'quvchilar uchun "mohirlik va biznes soati" kiritilib, ularning g'oyasini startapga aylantirishga 100 milliard so'm grant ajratamiz.

Oliyogohlar o'rtasida ham startaplar bo'yicha har yili "Eng yaxshi kreativ g'oya" tanlovi o'tkazilib, g'oliblarga oliyog grant ammasidan 300 million so'mgacha grant beriladi. Startapni prototipga aylantirish va in'ovatsion o'tkazish uchun Innovatsiya agentligi va IT park "R&D" markazini ochadi. Bunda eng yaxshi loyihalar bo'yicha prototip yaratish xarajatining 50 ming dollargacha qismi Yoshlar venchur jamg'armasidan qoplanadi.

Savdo-sanoat palatasi har yili investorlar, yirik korxonalar va startap loyihalarning tashabbuskorlari ishtirokida ham "Startap-ekspo" ko'rgazmasini o'tkazib boradi.

Hozirgi kunda tog'-kon, agrosanoat, g'ijmachilik, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari sohasida 1 million yoshlar mehnat qilmoqda.

Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligida band yoshlarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha ham tizim yaratamiz. Har bir kasb yo'nalishi bo'yicha aynan yoshlar o'rtasida respublika musobaqalari o'tkaziladi. Bunda davlat korxonalar va xususiy sektor vakillari tepa-teng ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o'z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy tajirovchilarga yuborishni yo'lga qo'yadi. Buning uchun har bir tarmoq 100 milliard so'mdan ajratadi. Bu mablag'larni soliq solish bazasidan chegirib tashlaymiz.

Bunga Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov) bosh-qosh bo'ladi.

Keyingi paytda o'qishga kira olmagan maktab bitiruvchilari hamda texnikum va oliyogohlarni tugatayotgan talabalarni band etish bo'yicha 2 ta alohida dastur qabul qildik. Shu maqsadda "Aloqabank" va Milliy banka 300 million dollar ajratildi. Ular "Yoshlar biznesi" dasturini doirasida 100 ming yoshlarni, "Kelajakka qadam" dasturi orqali 140 ming oliyogoh bitiruvchisini daromadli ish bilan ta'minlashga mas'ul bo'ladi.

Yil yakunida qancha yoshni ishli qilgani bo'yicha "Aloqabank" (K.Irisbekova) va Milliy bank (A.Mirsoatov) hisobotini o'zim qabul qilaman.

Bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliyogoh, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi.

Bandlik, Maktab, Oliy ta'lim vazirliklari "Harakatda daromad" elektron tizimini yaratib, ta'tildagi 3 million yoshlarni malaka talab qilmaydigan ishlar bilan band qiladi.

Savdo-sanoat palatasi (D.Vahobov), Savdo-servis uyushmasi (Z.Hoshimov) har yili yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashga qiziqitirish va ko'maklashish maqsadida "Mening kasbim" respublika tanlovinini o'tkazadi.

Migratsiya agentligi (B.Musayev) qaysi

mamlakatda qaysi kasb rivojlangan bo'lsa, g'oliblarni o'sha davlatga ko'nikmasini oshirish uchun yuboradi.

Kichik biznesga qo'shimcha sharoitlarni yaratish ustida ishlayapmiz. Buni yaqinda e'lon qilamiz.

So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi. Biz Yangi O'zbekistonda "xalq xizmatidagi davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarishda siz kabi iqtidorli, jonkuyar va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan o'g'il-qizlarimizga tayanamiz.

Shu bois o'tgan oyda istiqbolli kadrlarni tayyorlash va davlat boshqaruviga jalb etish bo'yicha muhim Farmonni imzoladim. Endi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Kelajak liderlari" dasturi bo'yicha har yili 100 nafar salohiyatli yoshlar o'qitiladi. Bu yoshlar vazir va hokimlarga birkiriladi, ikki oy ularning yonida yurib, tajriba orttiradi. Keyin bir oyga xorijiy tajirovkaga yuboriladi. Dasturni tamomlagan yoshlar rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod bo'ladi.

Yoshlarimizning kitob o'qishga qiziqishini oshirishda tanlovlar muhim rol o'ynamoqda. Birgina misol, Muhammad Xorazmiy nomidagi maktabning 8-sinf o'quvchisi Dilbar Haydarova "Yosh kitobxon" tanlovida g'olib bo'lib, ota-onasiga Prezident sovrini – avtomobil sovg'a qildi.

Dilbarxon qizim, sen o'z misolingda inson chin dildan harakat qilsa, ko'p narsaga erisha olishini isbotladim, bu yo'lda ko'pchilik uchun namuna bo'ldim. Buning uchun katta rahmat senga! Seni voyaga yetkazgan ota-onangga ham alohida minnatdorlik bildiraman.

Yoshlarning aktyorlik, musiqa, kitobxonlikka qiziqishini oshirish uchun "Turon" teatri, "Iqtidor ansambli", "Jadidlar izidan" kabi tanlovlar o'tkazilib, ularda 400 mingga yaqin o'quvchilar ishtirok etdi.

Endi tanlovlarda g'olib bo'lgan jamoalar chekka hududlardagi maktablarga muntazam borib, o'z chiqishlari bilan tengdoshlarini madaniyat va san'atga qiziqitiradi. Buning uchun viloyat hokimlari bittadan avtobus olib beradi. Respublika tanlovi g'oliblari madaniyat va san'at oliyogohlariga kirishda imtiyoz beriladi. "Iqtidor" maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi g'oliblari Bolalar va musiqa san'at maktablarida bepul o'qitiladi.

Yosh avlodni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularga axborot makonida foydali, mazmunli ma'lumotlarni yetkazish va targ'ib qilish doim e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur.

Shu maqsadda Bolalar kontentini rivojlantirish markazini tashkil etdik. Ushbu markaz milliy madaniyat, san'at, adabiyot, tarix va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga mo'ljallangan tarbiyaviy kontentlar yaratish uchun mas'ul bo'ladi.

Joriy yildan boshlab mahallalarda o'tkazilgan "Shijoat va g'ayrat" harbiy-sport musobaqalarida 244 ming nafar yigit-qiz ishtirok etdi, 1 milliondan ziyod yoshlar esa ularni katta qiziqish bilan kuzatib bordi.

Bir so'z bilan aytganda, bu bellashuvlar vatanparvarlik, jasorat va jipslikni targ'ib etadigan muhim harakatlarga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoylishta hayotini ko'z qorachig'idek asrashda siz, aziz yoshlarimizga tayanamiz.

Unutmang, mustaqillik – bu shunchaki rasmiy maqom emas, balki har bir yoshga o'z taqdirini o'zi belgilash imkonini beradigan buyuk ne'mat.

Mana, 9-may – Xotira va qadrlash kunida poytaxtimizdagi G'alaba bog'ida "Millat fidoiylari" monumentini ochdik. Bu yerda el-yurtimiz tinchligi yo'lida aziz jonini fido qilgan 196 nafar mard va jasur harbiylarimiz, huquq-tartibot idoralari xodimlarining nomlari muhrlangan.

Yoshlarimiz uchun vatanparvarlik, mardlik va shon-sharaf maktabini anglash, ularni qahramonlik ruhida tarbiyalashda bu maskanning ahamiyati juda katta.

Vazirlar, hokimlar ushbu qutlug' maskanga yoshlarni ko'proq olib borsa, ularda Vataniga muhabbat va adolat qutlug'ini yanada yuksaladi.

Yoshlarga oid islohotlarimizni xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat, deb topildi. Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi.

Shu kunlarda yurtimizda o'tkazilayotgan Global yoshlar festivalida 30 dan ortiq davlatlardan kelgan 300 nafardan ziyod yoshlar, 10 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Ishonchim komil, ushbu forum nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo yoshlari uchun samarali hamkorlik va o'zaro tajriba almashish maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Men bugun "Kreativ iqtisodiyot", "Raqamli "yashil" tashabbuslar", "Yoshlar tadbirkorligi va startaplari" va "Yosh innovatorlar" maydonchalaridagi o'g'il-qizlarimiz bilan muloqot qilib, hozirgi yoshlarimiz – Yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlari ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Men sizlar bilan faxrilanaman! Sizlarning har bir yutug'ingiz bu – ko'p millatli butun xalqimizning yutug'idir.

Azmu shijoatingiz, sog'lom dunyoqarashingiz, baxtu iqbolingiz – millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yaqinlaringizning ham baxtu saodatidir.

Aziz farzandlarim! **Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqsh, kelajak uchun poydevor degani. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, hayotingiz, baxtingiz, binosi shunchalik muhtasham bo'ladi.**

**Yoshlikdagi harakat bu – kelajakdagi yutuq degani.**

**Yoshlikda orttirilgan do'st – bir umrlik hamkor, tayanch va suyanch degani.**

Hech qancha unutmang, farzandlari bilimli, sog'lom, mard va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug' bo'ladi.

Men butun O'zbekiston yoshlari ana shunday fazilatlar egasi bo'lishini tilayman.

Ishonchim komil, biz butun xalqimiz bilan, siz, aziz farzandlarim bilan ulug' maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda albatta barpo etamiz!

Bugungi ayyom bilan sizlarni yana bir bor tabriklayman, barchangizga omad va zafarlar hamroh bo'lsin!

Doimo sog'-omon bo'linglar!

## PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OZOD TAFAKKUR G'OYASI

### haqida o'ylar

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ushbu muloqotni diqqat bilan kuzatib bordim.

*Lekin ham yosh bo'lganmiz. Orzularimiz, umidlarimiz, intilishlarimiz bor edi. Bizning yoshligimizning eng go'zal lahazarini mustabid tuzumning nochorliklari, og'ir hayot tarzi, mashaqqatli o'g'rilab oldi. Yoshligimizning kuch-g'ayrati paxta dalalarida qolib ketdi. Maktab davridan boshlab majburiy mehnat qilganmiz. To dekabri oyining oxirigacha paxta terish mashaqqatli, asosan, bolalar va yoshlar gardanida edi. Men inson qadri yer bilan yakson qilingan o'sha kunlarni alam va iztirob, afsus-nadomat bilan eslayman.*

#### Mushohada

Nobel mukofoti laureati Ernest Xemingueyning "Boy berilgan avlod" iborasi bundan yuz yil avval aytilgan bo'lsa-da, hanuz o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmagan. Aslida boy berilgan avlod emas, boy berilgan avlodlar, desa, to'g'ri bo'ladi.

Eng achinarlisi, O'zbekistonda paxta qulligi mustaqillik davrida ham hukm surdi. Mustabid tuzumning paxta qulligiga majburan bo'yundirilgan bo'lsa, 1991-yildan 2016-yilgacha ixtiyoriy qullik iskanjasida yashadik.

Paxta qulligining birinchi navbatdagi qurbonlari maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalar bo'lganini hisobga olsak, uning dahshatli oqibatlarini aniqlik bilan tasavvur qilamiz.

**Men millatimni paxta qulligidan qutulishidan umid uzgan edim. Paxta**

**qulligi mustaqil mamlakatning maktab o'quvchisidan tortib talabasigacha o'z domiga tortganini ko'rib, taqdirga tan berganman.**

Qullikning fojiasi nimada deb so'ralganda "Qo'ldagi kishanga mehr qo'yishda", deb javob berilgan ekan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi bilan O'zbekiston tarixida ilk bor paxta qulligiga barham berildi. To'g'risini aytish kerak, o'shanda bunga ishonmaganlar bo'ldi. "Orqaga qaytiladi", "Paxtani kim teradi?", "Iqtisodiyot o'ladi" degan bashoratchilar ham topildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Orqaga qaytish" iborasi bilan hech qachon murosa qilmagan.

**Men Prezident Shavkat Mirziyoyevning millatimni paxta qulligidan qutqarishini Amerika Qo'shma Shtatlarining 16-Prezidenti**



**Avraam Linkolnning insoniyat oldidagi tarixiy xizmatlariga tenglashtirgim keldi. U 1862-yilda "Ozodlik to'g'risidagi proklamatsiya"ni imzolagan edi. Mazkur hujjat AQSHda qullikni tugatishga qaratilganligi bilan tarix sahifalariga muhrlangan.**

Avraam Linkoln shunday yozgan edi: **"Vaqt kelib, mening nomim tarixga yoziladigan bo'lsa, faqat shu ishim uchun yoziladi. Chunki men butun qalbimni shunga bag'ishlaganman"**.

Butun qalbini bag'ishlash nimalarda namoyon bo'ladi? Avvalo, xalqini yaxshi ko'rishda, xalqiga yaxshilik sog'inishda, xalqini rozi qilishda, xalq ishonchini oqlashda.

**Majburiy mehnat nima? Paxta qulligi-chi? Jismoniy qullik, tafakkur qulligi emasmi?**

2016 – 2025-yillar oraligi tarix uchun juda qisqa fursat. Prezident Shavkat

Mirziyoyev paxta qulligidan qutqargan avlod tafakkurida nimalar yuz berdi?

**Millat o'zining kamida ikki asrlik tarixida ilk bor ozod tafakkur bilan yuzma-yuz keldi. Ozod tafakkurning to'liqlari butun dunyoda aks sado berdi.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev ozod tafakkur namoyandalari – millatimiz yoshlari bilan uchrashdi.

**Prezidentimizning mana bu fikrlari e'tiborimiz torditi:**

*"Yaqin-yaqin gacha umrini paxta dalasida o'tkazgan oddiy oila farzandlari ilmda, sportda, boshqa sohalarida bunday yuksak marralarni egallashini tasavvur qilish ham qiyin edi. Biz yoshlarimiz uchun sharoit yaratdik, ular bundan unumli foydalanib, baland cho'qqilarni zabt etmoqda..."*

*Birinchi va Ikkinchi Rennessansi buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz.*

*Sizlar Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!"*

Bugungi dunyoni kuch yoki qurol-aslahalar bilan qo'rqitib, yengib bo'lmaydi. Jahonda tafakkur jangi yuz bermoqda. Millat tafakkurining asosiy to'lqini yoshlar

ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, fikrimiz yanada oydinlashadi.

**Demak, Prezident Shavkat Mirziyoyev tafakkur ozodligi nima ekanini oldindan ko'ra olgan. Tafakkur tushovlangan avlod fojialarini o'z qalbidan o'tkazgan.**

Ozod tafakkurli avlod g'alabali yurishlarini ko'p kuttirgani yo'q. Millat bugun ozod tafakkur mo'jizalari bilan yuzma-yuz keldi. Mana bu misollarni bir idrok qiling, insofini o'rtaga qo'yib tahlil eting. Bu millatga berilgan ozod tafakkurning mahsuli emasmi?

**O'zbekiston yoshlari** TOP-500 talik oliyogohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Bilimli yoshlarimiz ilk bor TOP-500 talikdagi oliyogohlarga kirib, tarixiy natija qayd etdi. Bugungi kunda 30 nafar yoshlarimiz dunyoning TOP-10 talik oliyogohida, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

Ozod tafakkur natijasini bugungi Yevropa, Amerika, Yaponiya misolida ham ko'ramiz. Millat qalbidagi qo'rquv olib tashlandi. Fikrlash imkoniyati berildi. Yashash darajasi yaxshilandi. Turmush madaniyati oshdi. Ozod tafakkur yashab qolishi uchun yuqoridagi talablar ham juda muhim edi.

Ozod tafakkurli O'zbekiston yoshlari nafaqat sportda, balki ilm-fan borasida

ham dunyoni o'ylashga, hisob-kitob qilishga majbur qilyapti.

Ozod tafakkurning talabari, istaklari ko'p. Ozod tafakkurni berish va qabul qilishning o'zi ham ulkan jasorat.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ozod tafakkur borasidagi zahmatlari, orzulari va intilishlari xalqaro miqyosda ham tan olinayotgani, e'tirof etilayotgani har birimizga faxr va iftixor bag'ishlaydi:

*"O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi. Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi".*

Men Prezident va yoshlar uchrashuvida ozod tafakkur nima ekanligi bilan yuzma-yuz keldim. Ozod tafakkurning qudratini, kuchini tasavvur qildim.

Bu – boshlanishi. O'zbekistonning ozod tafakkurli yoshlari butun dunyoni lol qoldirishiga ishonaman. Ozod tafakkur bu – taraqqiyot, bu – tinchlik, bu – mustaqillik.

**Rustam XOLMURODOV, Samarqand davlat universiteti rektori,**

**O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.**

## YANGI O'ZBEKISTONNI BUNYOD ETAYOTGAN OLTIN AVLOD

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Davlatimiz rahbari bilan muloqotda yosh olim va ijodkorlar, dasturchilar, sportchilar, san'atkorlar, yosh tadbirkorlar o'zlari qo'liga kiritayotgan yutuqlar, hayotidagi o'zgarishlar haqida so'zlab berdi. Badiiy chiqishlarini namoyish qildi. Turli sohalarida yanada rivojlanish borasida o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirib, Prezidentimiz ularni qo'llab-quvvatladi.

**Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo'nalishlarni egallab, ancha ilgirib ketayapti. Ularni qo'llab-quvvatlasak, sifatli ta'lim berib, sharoit yaratdik, bundan ham katta natijalarga erishadi,** – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ixtirochi yoshlarga tegishli vazirliklarni mas'ul qilib belgilash, ularning loyihalarini yanada rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida o'tkazilgan uchrashuvda nutq so'zladi. Navqiron avlod vakillarini 30-iyun – Yoshlar kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

Tabrikada ta'kidlanganidek, keyingi yillarda iqtisodiyotimiz tez sur'atlar bilan o'sib, barcha sohada imkoniyatlarimiz ortib borayotganida, hech shubhasiz, yoshlarning ham munosib hisssasi bor.

Bilagida kuch-g'ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo'sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko'rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi.

**Katta-katta davlatlar, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari bugun bizga nega ishonmoqda? Nega milliardlar dollar investitsiya kiritmoqda? Bu, albatta, bejiz emas. Chunki hamkorlarimiz yoshlarimizning ilm-fan, ta'lim, IT, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlarini ko'rib, salohiyatimizga baho bermoqda, ertangi kunimiz poydevorini mustahkam ekaniya ishonch hosil qilmoqda,** – dedi Prezidentimiz.

Haqiqatan ham, O'zbekiston yoshlarining turli sohalardagi muvaffaqiyatlarini bugun dunyo hamjamiyati alohida e'tirof etmoqda. O'zbekistonning ertasi bugundand-da yorug', porloq va farovon bo'lishiga ishonch bildirmoqda. Va yetti emas, yetmish marta o'lchab, bir kesadigan nene sarmoyadorlar o'z mablag'larini aynan mamlakatimizdagi loyihalarga tikmoqda.

Albatta, bugungi dolg'ali zomonda, har kuni kutilmagan voqeiklar ro'y berayotgan, turli noaniqliklar hukm surayotgan bir davrda kimnidir o'zingga inontirish, ezu ishlariga hamkor va sherik bo'lishiga ko'ndirish qiyin. Bu holni endi mamlakat miqyosida olib qaraydigan bo'lsa, vaziyat yanada murakkab ekani ko'pchilikka ayon. Lekin O'zbekiston qanchalik og'ir bo'lmasin, qo'shni davlatlarni, jahonning rivojlangan mamlakatlarini, yirik investorlarni o'ziga, kuch-salohiyatiga ishoniryapti, birgalikda, hamijahatlikda rivojlanishga jalb etmoqda.

Bu ishda, shubhasiz, yoshlarimizning turli sohalardagi bugungi yutuqlari ham muhim omil bo'lmoqda. Birgina yaqinda futbol bo'yicha milliy terma jamoamizning jahon chempionati yo'llanmasini qo'liga kiritganini olaylik. Bu nafaqat xalqimizning 34 yillik orzularining ro'yobi, balki mintaqamiz uchun ham chinakam tarixiy voqeik bo'ldi. Endi o'zbekistonlik futbolchilar Markaziy Osiyodan tarixda ilk bor va yagona vakil sifatida mundialda qatnashadi.

Yoshlarimizning ta'lim, ilm-fan,

madaniyat, san'at, adabiyot sohalaridagi yutuqlari ham ko'zga ko'rinarlik. Masalan, o'tgan yili yurtimiz farzandlari TOP-500 talik oliygohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi. Bugungi kunda yigit-qizlarimizning 30 nafari dunyodagi TOP-10, 500 nafari TOP-100 va 1 500 nafari TOP-300 dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

– **Birinchi va ikkinchi Rennessansi buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermog'ga. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz,** – deya ishonch bildirdi Prezident.

Tan olish kerak: avvallari faqat Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar markazlaridagina ta'lim sifat jihatdan ilg'orroq bo'lib, qolgan hududlarda, ayniqsa, chekka tuman va qishloqlarda haminqadar olib borilardi. Chunki maktablarda shart-sharoitlarning o'zi ham zamon andozalari darajasida emasdi.

Eng og'riqli nuqta – o'qituvchi va o'quvchilarning, oliygohlar professorlari, talabalarining majburiy mehnatiga jalb etilishi, bir o'quv yilining to't oyini paxta dalasida o'tkazishi edi. Xalqimiz sobiq ittifoq davrida, istibdod iskanjasida yashagan yillar o'z-o'zidan ma'lum: sobiq markazga yosh avlodning ertangi taqdiri ahamiyatsiz bo'lgan, mamlakatdan imkon qadar tez va ko'proq moddiy boyliklarni tashib ketish maqsad qilingan. Ammo, taassufki, O'zbekiston mustaqil bo'lganidan keyin ham yoshlarning ertasiga bevosita ta'sir o'tkazuvchi qora an'analar chek qo'yilmadi. Navqiron avlod umrining eng gullagan davri paxta dalalarida yoz chillasida jaziramaga jig'anak bo'lib, kuzu qishda changu loyga botib o'taverdi.

Faqat keyingi 8-9 yilda bu achinarli holatga barham berildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi, Vatanga va xalqqa cheksiz mehruhabbat bo'is yosh avlod uzoq yillar davomida yelkasini yag'ir qilgan majburiy mehnat balosidan batamom qutuldi. O'zini emir-erkin his qiladigan, kuchini, vaqtini, umrini ta'lim olishga, salohiyatini boyitishga, kimligini va qanday buyuk ajdodlarning vorisi ekanini isbotlashga safarbar etadigan bo'ldi.

Bugun yoshlarning sifatli ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi, xorijiy tillarni o'rganishi, hayotda munosib o'rin topishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, hududini namunal qilgan viloyat va tumanlar ko'pligi ta'kidlandi. Masalan, yosh tadbirkorlar tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 milliard so'mdan oshdi. Ilgari bu borada Toshkent shahri yakka peshqadamlik qilgan bo'lsa, bugunga kelib Toshkent viloyati, Samarqand, Andijon, Namangan, Farg'ona yoshlarining biznesdagi natijalari poytaxtdan qolishmayapti.

Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm yoshlar bandidligini ta'minlash bo'yicha ilg'or hududlarga aylandi.

Shubhasiz, ta'limga ko'r-ko'rona yondashib, ertani o'ylamasdan ish yuritib bo'lmaydi. Yoshlarga biror fan yoki kasb o'qitilarkan, bunga zamon talabidan kelib chiqib yondashilmog'ga. Jumladan, yurtimizda bejiz "Bir million dasturchi" loyihasi hayotga tatbiq etilmayapti.

XXI asr – axborot texnologiyalari asri. Raqamlashtirish, kompyuterlashtirish, sun'iy intellekt zamon. Bugungi va kelgusi taraqqiyotni shu sohalardagi



Hосра ХАЙДАРОВ (yasa) ontop сопор.

raqobatbardosh bilimlarsiz, yetuk kadrlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sabab mamlakatimizda mazkur yo'nalishlarga alohida diqqat qaratilyapti. Natijada hududlarda zamonaviy IT-parklar ochilmoqda. Ta'limda ushbu sohani o'qitishga urg'u berilmog'ga. Misol uchun, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming yigit-qiz o'qitildi. Ayniqsa, Xorazm, Qashqadaryo va Samarqand yoshlari ITdan katta daromad topishni o'rganib oldi.

Chet tillarini o'qitish haqida ham shu gapni aytish mumkin. Yoshlar jahonga chiqishi, o'zini namoyon etishi, dunyoda tenglar ichra teng bo'lishi uchun xorij tillarini puxta bilishi kerak. Bu yo'nalishda yaratilgan qulayliklar sabab o'tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qiz xalqaro til sertifikatlarini olgan, bu – 2023-yildagiga nisbatan 2 baravar ko'p.

Yoshlar bandidligini ta'minlash masalasi ham davlatimizning doimiy e'tibori markazida. Bu yil 35 milliard dollarlik 8 300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o'rni yaratilmoqda. Yana 500 mingta ish o'rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada "yashil" iqtisodiyot, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarida minglab mutaxassislar talab paydo bo'ladi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlarga imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni bildirdi. Xususan, Prezidentimiz Farmon bilan Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etildi. Unga 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o'quvchi saralab olinib, 3 ta yo'nalishda chuqurlashtirib o'qitiladi.

Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchi tanlanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliygohlariga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo'ladi. Nufuzli xorijiy oliygohlarga kirayotgan barcha yigit-qiz ham 100 foizlik grant olish imkoniyatiga ega emas. Shu bois endi "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan TOP-300 talik oliygohga kirganlarning o'qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Eng avvalo, STEAM – ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlari, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalar bir necha ta'rif oshiriladi. Endi banklar TOP-300 talik oliygohga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit beradi.

Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha bank-moliya, muhandislik va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliygoh, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi. "Harakatda daromad" elektron tizimi yaratilib, ta'tildagi 3 million yoshlar malaka talab qilmaydigan ishlarga jalb etiladi.

So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari

Yangi O'zbekiston universitetida ushbu dasturga o'qitiladi.

"Raqamli avlod qizlari" tanlovida ta'lim, sun'iy intellekt, "yashil" iqtisodiyot, iqlim o'zgarishi kabi sohalarda 7 ming o'quvchi va talabning 120 ta startap loyihasi tanlab olindi. Joriy yil bu loyihaga kamida 50 ming nafar qizlar qamrab olinadi.

Odatda ratsionalizatorlik takliflar, startaplar, biznes g'oyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilmasi, faqat qog'ozda qolib ketishga eng katta sabab ularning o'z vaqtida moliyalashtirilmagidir. Ana shu muammo tufayli dunyoda, xususan, yurtimizda ham qanchadan-qancha istiqbolli g'oyalar, loyihalar hayotga ko'chmay qolgan.

O'zbekistonda keyingi yillarda bu masalaga yechim topishga jiddiy ahamiyat berilyapti. Jumladan, startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizim yaratilib, ularni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritildi. Endi bu mablag' 1 milliard dollarga yetkaziladi. Maktablarda o'quvchilar uchun "mohirlik va biznes soati" kiritilib, ularning g'oyasini startapga aylantirishga 100 milliard so'm grant yo'naltiriladi.

Olyoghohlar o'rtasida ham startaplar bo'yicha har yili "Eng yaxshi kreativ g'oya" tanlovi o'tkazilib, g'oliblarga oliygoh jamg'armasidan 300 million so'mgacha grant beriladi.

Startapni prototipga aylantirish va sinovdan o'tkazish uchun Innovatsiya agentligi hamda IT-park tadqiqot va taraqqiyot markazini ochadi. Bunda eng yaxshi loyihalar bo'yicha prototip yaratish xarajatining 50 ming dollargacha qismi Yoshlar venchur jamg'armasidan qoplanadi.

Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligida band yoshlarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha ham tizim yaratiladi. Har bir kasb yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'rtasida respublika musobaqalari o'tkaziladi. Bunda davlat korxonalari va xususiy sektor vakillari tengma-teng ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o'z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy stajirovkaga yuborishni yo'lga qo'yadi. Buning uchun har bir tarmoq 10 milliard so'mdan ajratadi.

Ma'lumki, maktab bitiruvchilari hamda talabalarining bandidligini ta'minlash bo'yicha ikkita dastur qabul qilingan. Shu maqsadda "Aloqabank" va Milliy bankka 300 million dollar ajratilgan. Ular "Yoshlar biznesi" dasturi doirasida 100 ming yoshlarni, "Kelajakqa qadam" orqali 140 ming oliygoh bitiruvchisini daromadli ish bilan ta'minlashga mas'ul bo'ladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliygoh, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi. "Harakatda daromad" elektron tizimi yaratilib, ta'tildagi 3 million yoshlar malaka talab qilmaydigan ishlarga jalb etiladi.

So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari

tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi. O'tgan oyda istiqbolli kadrlar tayyorlash va ularni davlat boshqaruviga jalb qilish bo'yicha Prezident Farmoni imzolandi.

Endi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida "Kelajak liderlari" dasturi bo'yicha har yili 100 nafar salohiyatli yosh o'qitiladi. Vazir va hokimlar ularga mas'ul bo'lib, tajriba orttirishga, xorijda stajirovka o'tashiga ko'maklashadi. Davtami tamomlagan yoshlar rahbarlik vazomlariga asosiy nomzod bo'ladi.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida kitobsevarlik, san'at va madaniyatning ahamiyati katta. Shu bois mazkur yo'nalishdagi tanlovlarda g'olib bo'lganlar chekka hududlardagi maktablarga borib, chiqishlar qiladi. Buning uchun viloyat hokimlari bittadan avtobus olib beradi.

Respublika tanlovi g'oliblariga madaniyat va san'at oliygohlariga kirishda imtiyoz beriladi. "Iqtidor" maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi g'oliblari Bolalar va musiqa san'at maktablarida bepul o'qitiladi.

Prezidentimiz o'z nutqida yosh avlodni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularga axborot makonida foydali, mazmunli ma'lumotlarni yetkazish va targ'ib qilish masalasiga ham e'tibor qaratdi.

Shu maqsadda Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilingani, ushbu markaz milliy madaniyat, san'at, adabiyot, tarix va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga mo'ljallangan tarbiyaviy kontentlar yaratish uchun mas'ul bo'lishini qayd etdi.

Bugun dunyo dengiz suvidek har lahza qalqib turibdi. Jahonda tinchlik-totuvlik tobora eng tanqis ne'matga aylanib bormog'ga. Bugun notinchlik kuzatilayotgan mintaqalarga nazar solsangiz, urush-nizolar taqdirini zamonaviy qurol-aslahalar bilan birga Qurolli Kuchlar tarkibining qanchalik vatanparvarligi, mardligi, jasorati, g'ayrat-shijoati hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman, el-yurtga sadoqat tuyg'usi, ona Vatan mehri, muhabbati insonni jonkuyurlikka, fidoyilikka, jasoratga, kurashuvchanlikka undaydi.

Shu ma'noda, yosh avlodda vatanparvarlikni kuchaytirish, qalblarga ezu hislarni singdirish, ularni turli zararli ta'sirlardan asrash masalasi ham dolzarb. Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i"da "Millat fidoyilari" monumenti ochilganidan ham ana shu maqsad-muddao ko'zlangan. Bu yerda el-yurtimiz tinchligi yo'lida aziz jonini fido qilgan 196 nafar mard va jasur harbiylarimiz, huquq-tartibot idoralari xodimlarining nomlari muhrangan.

Davlatimiz rahbari urg'ulaganidek, yoshlarimiz uchun vatanparvarlik, mardlik va shon-sharaf maktabini anglash, ularni qahramonlik ruhida tarbiyalashda mazkur maskanning ahamiyati juda katta.

Bu qutlug' ziyoratgohga yoshlar

ko'proq olib borilsa, ulara Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi yanada yuklanadi.

Davlatimizning yoshlarga oid siyosatini xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu borada eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi.

Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi.

Shu kunlarda yurtimizda Global yoshlar festivali bo'lib o'tmoqda. Ushbu forum nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo yoshlari uchun samarali hamkorlik va o'zaro tajriba almashish maydoni bo'lishi qayd etildi.

Prezidentimiz yoshlarni bilim olishga, vaqtdan unumli foydalanib, yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishga yana bir bor da'vat etdi.

– **Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqsh, kelajak uchun poydevor degani. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, hayotingiz, baxtingiz binosi shunchalik muhtasham bo'ladi. Yoshlikdagi harakat bu – kelajakdagi yutug' degani. Yoshlikda o'tirilgan do'st – bir umrlik hamkor, tayanch va suynanch degani. Hech qachon unutmang, farzandlari bilimli, sog'lom, mard va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug' bo'ladi,** – dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-iyundagi Farmon va qaroriga muvofiq, yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida bir guruh ilg'or yigit-qizlar "Kelajak yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug' bo'ladi," dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-iyundagi Farmon va qaroriga muvofiq, yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida bir guruh ilg'or yigit-qizlar "Kelajak yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug' bo'ladi," dedi Shavkat Mirziyoyev.

Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida ana shu mukofotlarni topshirish marosimi bo'ldi. Davlatimiz rahbari so'zining avvalida yigit-qizlarni Yoshlar kuni bilan tabrikledi. Bolalarni yuqori darajada o'qitish, xorijiy universitetlarga tayyorlash, yoshlarning startap va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bandidligini ta'minlash bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Uchrashuvda yoshlar bilan ochiq muloqot bo'ldi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarga davlat mukofotlarini topshirdi. Mukofotlanganlar davlatimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Kelgusida ham o'qish-izlanishdan ortga chekinmay, yanada katta natijalarga erishishga harakat qilishini, xalqimiz ishonchini oqlashini ta'kidladi.

Kunning ikkinchi yarmida 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida gala-konsert o'tkazildi.

Konsert dasturi bilimga chanqoqlik, maqsadga sobitqadamlik va mehnat bilan erishishni rag'batlantirish, ijtimoiy mas'uliyat asosidagi faollikni, umumjamiyat manfaatlariga daxldorlikni shakllantirish kabi ulug'vor g'oyalar asosida tuzildi.

Shuningdek, kuy-qo'shiqlarda, sahna ko'rinishlarida O'zbekistonning uch ming yillik tarixi, Birinchi va Ikkinchi Rennessansi paydo bo'lish omillari, Yangi O'zbekistonda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar natijadorligi o'z aksini topdi.

**Dilshod KARIMOV**  
("Xalq so'zi").

## TOSHKENTDA "EURONEWS"NING OFISI OCHILDI

Poytaxtimizda "Euronews" telekanalining Toshkent ofisi ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

## Tadbir

Mazkur tadbirga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas'ullari, xorijiy va mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlari, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning vakillari taklif etildi.

Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlarga yo'llagan tabrigida global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o'zgarayotgan hozirgi o'ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot

vositalarining o'imi va ta'siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidladi.

Shu ma'noda, bugungi kunda yurtimiz media makonida jahonning yetakchi ommaviy axborot vositalari bilan uzviy hamkorlikni keng yo'lga qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ofisning ochilish marosimida ta'kidlanganidek, keyingi yillarda jahonga yangilanayotgan O'zbekiston sifatida tanilayotgan mamlakatimizda ko'plab xorijiy media tuzimlari samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni paytda yetakchi axborot agentliklari, telekanallar xorijdagi ommaviy axborot vositalari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga

qo'yimoqda. Bu esa axborot olamidagi media materiallar almashinuviga, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishga, yurtimizdagi voqeiklarni tezkor va joyida yoritishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur telekanal Direktorlar qengashining raisi Pedro Vargas Davidning qayd etishicha, "Euronews"ning Toshkent ofisi ochilishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu mamlakatlarimiz o'rtasida o'ziga xos media ko'priq vazifasini o'tashi shubhasiz. Shuni ham aytish kerakki, "Euronews" bu nainki axborot makoni, balki madaniyatlar, sivilizatsiyalarning o'zaro muloqot o'malgan, tutashgan makonidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sherzod Asadov keyingi yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha jabhasi kabi matbuot va so'z erkinligini

amalda ta'minlash, ommaviy axborot vositalari xodimlarining erkin va samarali faoliyati uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilayotganini ta'kidladi. Ayni paytda jurnalistika sohasida ham xalqaro hamkorlik aloqlari tobora kengayib bormog'ga.

"Euronews"ning Toshkentda ofisi ochilishi yurtimizdagi islohotlar, yangilanish jarayonlarini jahon miqyosida kengroq yoritish imkonini berishi shubhasiz.

Bugungi globalashuv davrida dunyoning hech bir mamlakati axborot makonida ham alohida o'z holicha faoliyat ko'rsata olmaydi, – dedi BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Maxl. – O'zbekiston barcha davlatlar kabi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari

bilan ham samarali hamkorlikni yo'lga qo'yg'an. "Euronews"ning Toshkentdagi ofisi ochilishi Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro muloqotni ta'minlashga qaratilgan platformaga aylandi.

Darhaqiqat, Yevropa Ittifoqining eng yetakchi telekanallaridan biri bo'lgan ushbu media tuzilma kun davomida uzluksiz axborot – video va audio kontentlarni tayyorlab tarqatuvchi ommaviy axborot vositasi sanaladi. Ushbu telekanal jahonning o'ndan ortiq tilida axborot tarqatadi. Tantanal tadbirida "Euronews" muxbirlari tomondan O'zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari, islohotlar, keng qamrovli o'zgarishlarga oid videoreportajlardan lavhalar bilan tanishish imkoni yaratildi.

Tadbirida san'at ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi.

**Nazokat USMONOVA,**  
O'ZA muxbiri.

Uchrashuv

BO'LG'USI OLIMLAR VA INNOVATORLAR BILAN MULOQOT

30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva yosh olimlar va innovatorlar bilan uchrashuv o'tkazdi.



Senatorlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, yosh olimlar, tadbirkorlar, innovatorlar, "Bir million dasturchi" loyihasi ishtirokchilari, Yoshlar akademiyasi va texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari, shuningdek, innovatsion tuman va shaharlar hokimlarining mas'ul o'rinbosarlari, faol yigit-qizlar ishtirok etgan tadbirida Senat Raisi yoshlarga oid davlat siyosati, ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda qonunchilikdagi yangiliklar haqida so'z yuritdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yoshlarga oid 100 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Oliy ta'lim muassasalari soni 3 barobarga oshirilib, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishi 42 foizga yetdi. Xotin-qizlar uchun shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplab berish amaliyoti joriy qilinishi natijasida ularning oliy ta'limdagi ishtiroki 11 barobar oshdi.

Shuningdek, 1,5 mingdan ortiq iqtidorli yoshlar dunyoning nufuzli universitetlarida tahsil olmoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi

orqali so'nggi yetti yilda 2,3 ming nafar yosh xorijda o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ilmiy darajaga ega yosh olimlar soni 4 mingdan oshib, ularning umumiy soni qariyb 11 ming nafarni tashkil etmoqda.

Ilm-fanni qo'llab-quvvatlash, tashabbuslarni rag'batlantirish maqsadida mazkur sohalarga Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar 1,5 trln. so'mdan oshdi.

Yoshlar akademiyasi tashkil qilinib, unda 4,2 mingdan ziyod iqtidorli yigit-qizlar birlashgan. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida innovatsion infratuzilmalar rivojlantirilib, yosh ixtirochilar jahon bozoriga chiqishiga shart-sharoit yaratilmoqda. IT Park rezidentlarining soni 2025-yilga kelib 2,5 mingdan oshdi. Startaplar soni 260 tadan ortib, ular orqali 17,9 mln. dollarlik investitsiya jalb qilindi.

2026-yilgacha O'zbekistonni jahonning TOP-50 innovatsion davlatlari qatoriga kiritish, infratuzilma subyektlari sonini 75 taga, startaplar sonini esa 1 437 taga yetkazish belgilangan.

Muloqot chog'ida yosh olimlar va faol yoshlar davlat siyosatining amaldagi samaralari va o'z hayotlaridagi ijobiy ta'siri haqida fikr bildirdi. Senat bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yangi loyihalar bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Bunday uchrashuvlar muntazam tashkil etilib, an'anaviy tus olishiga ishonch bildirildi.

"Xalq so'zi".

Anjuman

O'ZBEKISTON PARLAMENT DELEGATSIYASINING YEVROPAGA TASHRIFI

Shu kunlarda Portugaliyaning Portu shahrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasining 32-yillik sessiyasi bo'lib o'tmoqda. Nufuzli anjumanida Shimoliy Amerika, Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan 200 dan ortiq parlament a'zolari ishtirok etyapti.

Mazkur sessiyada Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ham qatnashmoqda.

Delegatsiyamiz ayni paytgacha assambleyaning ochilish marosimi, yalpi yig'ilishlari hamda qo'mita majlislarida ishtirok etdi.

Tadbirning ochilish marosimida YXHT PA Prezidenti Pia Kauman nutq so'zlab, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, mamlakatning xalqaro maydondagi faol ishtirokiga yuqori baho berdi. Shuningdek, O'zbekistonda o'tkazilgan so'nggi parlament saylovi YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha

byurosi tomonidan xalqaro standartlarga mos deb, ijobiy baholangan ta'kidlandi.

Sessiya doirasida O'zbekiston delegatsiyasining YXHT PA Bosh kotibi Roberto Montella bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida O'zbekiston bilan YXHT Parlament assambleyasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, O'zbekiston delegatsiyasi YXHT PANing Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Farim Karimiy va mintaqa davlatlari parlamentlari vakillari ishtirokida maslahatlashuv uchrashuvida ham qatnashdi. Unda YXHT PA doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari parlament guruhini tuzish,

mintaqaviy muloqotni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston delegatsiyasi lpak yo'lini qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishida ham ishtirok etdi. Yig'ilishda mintaqaviy hamkorlik istiqbollari muhokama markazida bo'ldi. Shu munosabat bilan delegatsiyamiz tomonidan ushbu guruh doirasida mamlakatimizda akademik

tadbir o'tkazish tashabbusi ilgari surildi va bu taklifni amaliy jihatdan ishlab chiqishga kelishib olindi.

O'zbekiston delegatsiyasining YXHT Parlament assambleyasi sessiyasidagi ishtiroki 3-iyulgacha davom etadi.

"Xalq so'zi".

XIVA NUFUZLI FORUMGA MEZBONLIK QILADI

Kecha Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova boshchiligidagi parlament delegatsiyasi O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumida ishtirok etish uchun Xiva shahriga keldi.

Forum

Ozarbayjon parlamenti delegatsiyasini Urganch xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva kutib oldi.

Mazkur forum ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni, xususan, parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam sifatida baholanmoqda. Tadbirda ikki mamlakat parlamentlari a'zolari, ayol deputatlar va yoshlar parlamentlari vakillari ishtirok etmoqda.

Shu o'rinda ikki mamlakat parlamentlararo munosabatlarning rivoji xususida so'z yuritadigan bo'lsak, so'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik

darajasiga ko'tarildi, bunga Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev o'rtasidagi amaliy, ishonchli va do'stona munosabatlar yordam berdi. Ikki mamlakat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli Oliy Majlis va Milliy Mejlis o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. O'tgan yillar davomida Oliy Majlis Senati va Milliy Mejlis yuqori darajadagi sheriklik hamda parlamentlararo diplomatiyani rivojlantirishdan manfaatdorlikni namoyon etdi.

Tasdiqlangan 2022 – 2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xarita"lari doirasidagi o'zaro tashriflar, ikki tomonlama uchrashuvlar va qo'shma loyihalarning amalga oshirilishi mamlakatlarimizni barqaror rivojlantirish yo'lida parlamentlararo muloqotni

mustahkamlash va ilg'or tajriba almashish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan joriy yil 1-2-iyul kunlari Xiva shahrida O'zbekiston – Ozarbayjon birinchi parlamentlararo forumi o'tkazilishi nafaqat parlamentlararo muloqotning muhim maydoni, balki ikki mamlakat o'rtasidagi strategik hamkorlikni chuqurlashtirishning samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Forumdan ko'zlangan maqsad – parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, qonun ijodkorligi va parlament nazorati bo'yicha tajriba almashish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga ko'maklashish.

Ishonamizki, Xiva shahrida bo'lib o'tadigan ushbu forum O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MUHOKAMALAR QIZG'IN, TAKLIFLAR KONSTRUKTIV

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi

yig'ilishida "Bozor islohotlari va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoligi yanada jadallashirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Ma'lum qilinganidek, keyingi yillarda mamlakatimizning xalqaro iqtisodiyotga to'liq integratsiyasini ta'minlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, monopoliy sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi esa qora va rangli metall lomi hamda chiqindilari, tabiiy gaz savdosi sohasiga xususiy sektor va innovatsiyani jalb qilish, raqobat va ochiq bozor muhitini yaratishga qaratilgan.

U bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilanmoqda. Ya'ni qora va rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish),

"Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun 2010-yilning dekabr oyida qabul qilingan bo'lib, eng yaxshi xalqaro tajribani o'rgangan holda, bu sohaning o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi. Jumladan, yangi qonun loyihasi bilan davlat organlarining rieltor faoliyati sohasidagi professional jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlari kengayadi, rieltorlik xizmatlari sifati va raqobatbardoshligi oshadi. Rieltorlik faoliyati amaldagi hujjatlar tizimlashtiriladi, bu boradagi qonunosti hujjatlari qisqaradi. Xizmat ko'rsatish jarayonlari va tartiblari takomillashadi. Ko'chmas mulk aylanmasi va operatsiyalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish mexanizmlari rivojlanadi.

Eng asosiysi, biznesning "soya"dan chiqishini rag'batlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilik, OAV jalb qilinadi va bu jamiyatda "yashirin iqtisodiyot"ga murosasizlik hissini shakllantiradi, legal biznes yuritishning nufuzini oshiradi. Loyihada, shuningdek, rieltorlik faoliyatini tartibga solish shakli sifatida litsenziyalashni bekor qilish va davlat organi funksiyalarining bir qismini professional jamoat birlashmalariga o'tkazish nazarda tutilmoqda.

munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda valyuta sohasini takomillashtirishga, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Lekin valyuta qimmatliklarining qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish sohasida qator muammolar

mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi qat'iy normalar belgilanmoqda.

Muhokama chog'ida fraksiya a'zosi Anvarxon Temirov qonun loyihasidagi ayrim normalar qishloq xo'jaligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, yer resurslaridan samarali foydalanish, fermerlar, ayniqsa, ijarachilar huquqlariga oid munosabatlarda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishini ta'kidladi.



va huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qonunga xilof ravishda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy va jinoyat javobgarlikni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonun hujjatlaridagi valyuta qimmatliklari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi tushunchalar o'zaro muvofiqashtirilayapti.

Yig'ilishda rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi rasmiy statistika sohasida ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirish doirasida statistika organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda rasmiy statistikadan foydalanuvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab "Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilib, unga fraksiya a'zolari o'z mulohazalarini bildirdi. Loyihada hududiy yoki sohaviy miqyosda yangi qonunchilik normalarni tajriba tariqasida joriy qilish ko'zda tutilayotganiga alohida e'tibor qaratildi. Bunday yondashuv qonunlarning hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga xizmat qilishini ta'kidlashdi.

Nabatdagi qonun loyihasi qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi. Dala chetlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasida qishloq xo'jaligiga

Fraksiyaning yana bir a'zosi Qizilgul Qosimova loyihadagi nazarda tutilgan ayrim normalarga qarshi chiqib, yerdan unumli foydalanish maqsadlariga jazo emas, balki rag'batlantirish uslublarini joriy etgan holda erishish mumkinligini taklif qildi.

Muhokama savol-javoblar bilan uzoq davom etdi. Yakuniy ovoz berish natijalari fraksiya a'zolari qonun loyihasini qo'llab-quvvatlamaganini ko'rsatdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida qurilish materiallari sohasida texnik jihatdan tartibga solishni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qurilish oynasi ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash masalasi nafaqat atrof-muhit, balki iqtisodiyot uchun ham dolzarb masaladir. Shu bois qonun loyihasida bunday chiqindilarni qayta ishlash xarajatlarini qoplash uchun maxsus utilizatsiya yig'imini joriy etish nazarda tutilmoqda. Bu ekologiyani muhofaza qilish bilan birga, mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasini atroflicha muhokama etib, ushbu hujjat nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va qurilish oynasi bozorida sifatlilik mahsulot ulushini ko'paytirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini ta'kidladi.

Fikr-mulohazalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".



qayta ishlash va realizatsiyalash, shuningdek, tabiiy gazning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalash tartibini joriy etish nazarda tutilayapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zosi Umid Yakubxo'jayev qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga to'xtalib, unga kiritilayotgan normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddilar ko'tarilgan savollar yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi. Ma'lumki, rieltorlik faoliyati – bu yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlari va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

Fraksiya a'zosi Azamat Pardayev qonun loyihasiga munosabat bildirib, loyihani yanada takomillashtirish taklifini berdi. Uning fikricha, loyihadagi sohani tartibga soladigan normalar kam. Amaldagi normalar biroq kuchaytirilayapti, xolos. Yangi ta'sirchan choralar ko'rinmayapti.

Deputat Nodir Tilavoldiyev esa rieltorlik faoliyati bo'yicha odamlarda huquqiy madaniyat yetishmayotganini ta'kidladi. – Masalan, uyimizni sotib berish bo'yicha bizga murojaat qilgan rieltorlardan sertifikatini so'ramaymiz, hatto ular bilan shartnoma tuzish xayolimizga ham kelmaydi. Og'zaki kelishuvlarimiz esa ayrim ziddiyatlarni keltirib chiqaryapti. Shu bois bu boradagi targ'ibot ishlarini kuchaytirishimiz lozim, – dedi deputat.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi ko'pchilik ovoz bilan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida valyuta hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi bilan bog'liq

MUHIM YO'NALISHLARDAGI AMALIY MASHG'ULOTLAR

Yoshlar oyligi doirasida Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti tashabbusi bilan mamlakatimizning barcha hududida "Faollar jamoasi" va Yoshlar maslahati guruhi a'zolari uchun o'quv seminarlar tashkil etildi.

Seminar

Ma'lumot uchun, Yoshlar oyligi joriy yilda mazmun jihatdan keng qamrovli yo'nalishlarni o'z ichiga oldi. Xususan, ilm-fan, so'niy intellekt, zamonaviy kasblar, xorijiy tillarni o'rganish, kitobxonlikni rag'batlantirish va intellektual o'yinlar kabi sohalarga alohida e'tibor qaratildi.

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi "Faollar jamoasi" va Yoshlar maslahat guruhi a'zolari uchun o'quv seminarlarining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova tomonidan bugungi kunda mamlakatimizda navqiron avlodga berilayotgan imkoniyatlar, Yoshlar parlamenti faoliyati haqida ma'lumotlar berildi.

Seminarlar davomida ishtirokchilarga tajribali mutaxassislar tomonidan qator muhim yo'nalishlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Jumladan, loyiha ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish, jamoani shakllantirish va liderlik ko'nikmalari, ayollar va bolalarni kiberz'aronlikdan

himoya qilish, mediasavodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar uchun foydali kontent yaratish, shuningdek, volontyorlik faoliyatining huquqiy va amaliy jihatlari bo'yicha zarur bilimlar berildi.

Shuningdek, uchrashuvlarda yoshlar bilan harbiy vatanparvarlik va motivatsion uchrashuvlar, intellektual "Zakovat" o'yinlari hamda maxsus texnikalar ko'rgazmasi namoyish qilingan tadbirlar ham o'tkazilmoqda.

Seminarlar doirasida "Senator va yoshlar" uchrashuvi ham tashkil etildi. Unda parlament yuqori palatasining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova, shu qo'mita a'zosi Malika Qodirxonova, Oliy Majlis Senatining Huddudiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi hamda Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimlari ishtirok etdi.

Muloqot davomida faol yoshlar senatorlarga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildi, takliflarini bildirdi va yangi bilimlarga ega bo'ldi.

Seminarlar yakunida ishtirokchilarga tegishli sertifikatlar topshirildi.

"Xalq so'zi".

# AHOLI ISHONCHI – YUKSAK MAS'ULIYAT

Davlatimiz rahbari 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bugungi kun oldimizga yangi vazifalarni qo'yayotgani, xalqimizning farovon yashashga ehtiyoji va talablari ortib borayotganini aniq tahlil qilib berdi. O'z navbatida, biz, xalq vakillari aholi murojaatlarini ko'proq tinglashimiz, mavjud muammolarni bartaraf qilishga sa'y-harakatlarimizni safarbar etishimiz maqsadga muvofiq.

## Mulohaza

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Qonunchilik palatasi deputatlari faoliyatidagi katta o'zgarishlardan biri – xalq bilan doimiy hamnafas bo'lish, saylovchilar huzuriga yilda bir-ikki marta emas, har oyda borish, joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, xalqning turmush tarzi bilan tanishish muntazamlik kasb etgani bo'ldi. Saylovchilar bilan uchrashuvlar ham yopiq zallarda emas, mahallalarda xonadonma-xonadon bo'lib o'tayotgani, aholini qiynayotgan mavjud muammolarni to'g'ridan-to'g'ri joyiga chiqib o'rganilayotgani ancha samarali kechmoqda. Eng muhimi, joylarda xalqimizni qiynayotgan muammolarga mutasaddilar bilan birgalikda yechim topish imkoniga ega bo'lmoqdamiz.

Misol uchun, deputatlar bilan birgalikda yil boshidan buyon hududlarga chiqib o'rganishlar olib borilganida, ichimlik suvi ta'minoti, oilaviy poliklinikalarda tibbiy xizmat ko'rsatish, tibbiyot birlashmalarining sanitar ahvoli va tibbiy chiqindilar, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan ko'chatlarning bugungi ahvoli, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi holatlar bo'yicha 400 dan ziyod aholi murojaatlari bevosita joyiga chiqib ko'zdan kechirildi. Ularning aksariyati bo'yicha tegishli mutasaddilar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda yechim topishga erishgan bo'lsak-da, fuqarolar murojaatlari, afsuski, halli o'z emas.

Davlatimiz rahbari bunday holatlarni aniq tahlil qilib berdi, mavjud kamchiliklarga hokimlar e'tiborini qaratdi. Misol uchun, har bir tumandagi 40 dan ziyod tashkilotlarda o'rtacha 500 nafar xodim ishlashi, lekin ayrim oddiy masalalarni hal qilish uchun ham viloyatdan, ular esa respublikadan ruxsat olishi keraklik mamlakat rahbari tomonidan bejiz qayd etilmadi. Chunki bunday holatlarga biz ham faoliyatimizda tez-tez duch kelamiz. Joylardagi o'rganishlar bo'yicha yuborgan deputatlik so'rovimizga mahalliy hokimlik tomonidan "bu bizning vakolatimizga kirmaydi" qabilida javob olishimiz, oqibatda muammoning yechimi cho'zilib ketishi yoki butunlay yechim topmasligiga

olib kelayotgani ham bunga yaqqol misoldir.

Ba'zan joylarda bo'lganimizda, fuqarolar tuman miqosida hal etilishi mumkin bo'lgan muammolardan aziyat chekayotganinguvohi bo'larnamiz. Misol uchun, noqonuniy chiqindi poligonining paydo bo'lishi bir-ikki kun yoki biron oyda yuzaga kelib qolgan jarayon emas. Bu tegishli mas'ul rahbarlarning o'z xizmat vazifasiga panja ortidan qarab kelganining mudhish oqibatidir. Bundan nafaqat odamlar, xalq jabr ko'radi, hatto ba'zi muammolar ekotimizdagi tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Izdan chiqqan tizimdagi muammo avlodlarga ham o'tib boradi.

Shu bois ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yilayotgani xalqimizning ayni dilidagi gap bo'ldi. Davlat rahbarining topshirig'i bilan endilikka Xalq qabulxonalariga viloyat va tuman hokimining o'zi rahbarlik qiladi. Ular har kuni ishini aholi dardi va tashvishi eshitishdan boshlaydi. Murojaatni boshqa idoraga yubormasdan, shu joyning o'zida hal qiladi. Buning uchun tuman hokimining vakolatlari kengaytiriladi.

Aytish joizki, bu yangi tizim aholi muammolarini tezkor hal etishda, samarali jamoatchilik nazorati olib borishda butunlay o'ziga xos yondashuv bo'lib, biz, deputatlar, siyosiy partiya vakillariga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Joylarda deputatlik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarga tezkor yechim topish xalqimiz va saylovchilarni rozi qilishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga to'xtalib o'tish joiz. Bugungi iqlim o'zgarishlari, geosiyosiy vaziyat mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi, aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham mamlakat rahbari bu masalaga doimiy e'tibor qaratmoqda. Aholini sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash payсалга



solinadigan jarayon emas. Bu – har bir inson hayotiga daxldor jiddiy zarurat. Shuni teran anglab yetgan va his qilgan holda bu vazifaga mas'uliyat bilan yondashmo'g'imiz shart. Yetishtirilgan har bir hosil hayotimiz davomiylik uchun nihoyatda muhim. Qolaversa, oziq-ovqat mahsulotlari

“ **Yangi tizim aholi muammolarini tezkor hal etishda, samarali jamoatchilik nazorati olib borishda butunlay o'ziga xos yondashuv bo'lib, biz, deputatlar, siyosiy partiya vakillariga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Joylarda deputatlik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarga tezkor yechim topish xalqimiz va saylovchilarni rozi qilishda keng imkoniyatlar yaratadi.** ”

yetishtirishda ichki imkoniyatlarimizdan unumli foydalanish har jihatdan katta samara beradi, mamlakat iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlaydi. Shu bois yig'ilishda mahallalarga suv olib borib, meva-sabzavot yetishtirish, zamonaviy agroteknologiyalar orqali eksportni ko'paytirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi. O'rmon va yaylovlardan chorvachilikda foydalanib, go'sht va sut mahsulotlarini ko'paytirish, oziq-ovqat inflyatsiyasini jilovlash chora-tadbirlari belgilandi.

Darhaqiqat, hududlardagi o'rganishlarimiz davomida shunga amin bo'lyapmizki, tomorqachilikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Faqat ba'zi joylarda sug'orish imkoniyati yoki mo'jazgina issiqxona tashkil etish uchun sarmoyaning yo'qligi, hatto tomorqasini haydab olish uchun oddiy texnika mavjud emasligi kabi muammolar odamlarni qiyinab kelyapti. Quvonarlisi, Prezidentimiz endilikkda bu masalalar ham hal etilishini, tomorqachiga barcha imkoniyat yaratib berilishini alohida qanday etib o'tadi.

Mamlakat rahbari tomonidan ekologiya sohasi bo'yicha bildirilgan e'tirozlar juda o'rinni va bugungi

ekologik vaziyatning ayni talabi. O'zbekiston Ekologik partiyasi "Ishonch telefoni" va deputatlariga yil boshidan buyon tushgan murojaatlarning 350 ga yaqini aynan qurilish obyektlari bahonasida yashil maydonlar egallab olinayotgani, aholi sayr qilishi uchun yashil hududlar yo'qligi hamda daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liqdir. Afsuski, partiyamiz va deputatlarga tushgan bunday murojaatlar yechimiga sohadagi ayrim tashkilot va mansabdorlar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmayotgani bor gap. Shuning uchun ham mamlakat rahbarining bu boradagi e'tirozi tanqidlari har tomonlama o'rinni.

Holbuki, bizga ishonch bildirgan xalqimizni tinglashimiz, ularni qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishimiz kerak. Yig'ilishda qayd etilganidek, aholi hayot sifatini oshirishda yashil hududlar, sport maydonchalari va jamoat maskanlarini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlat rahbari tomonidan bildirilgan tanqid va topshiriqlar partiyamizning dasturiy maqsadlari bilan uyg'un va hamohang bo'lib, yillar davomida ilgari surib kelinayotgan takliflarimizga mos keladi. Prezidentimiz bolalar sport maydonchalari va odamlar dam olishi uchun yashil hududlarni saqlab qolish borasida xalqimizning ayni dilidagi fikrlarni bildirdi.

Ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni asrab qolish, ular turarjoy

Bugungi islohotlarning barchasi – xalq dardini tinglash, muammolarga amaliy yechim topish va insonlarning yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Bunga faqat yuqoridan beriladigan topshiriqlar bilangina emas, balki joylardagi fidokor va mas'uliyatli rahbarlar hamkorligida erishish mumkin. Biz, xalq vakillari sifatida bu yo'nalishda ilgari surilayotgan qonunchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va aholi farovonligi yo'lida faol xizmat qilishga tayyormiz.

**Abdushukur HAMZAYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi  
O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.

## Munosabat

## IMKONIYAT YARATISH – STRATEGIK VAZIFA

Yoshlar mamlakat taraqqiyotining eng katta va muhim resursi hisoblanadi. Yigit-qizlar ilm olishi, hunar egallashi, sport bilan shug'ullanishi, qo'yingiki, o'zini har tomonlama rivojlantirishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish strategik vazifadir.



Yoshlar kunida o'tkazilgan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bu borada yangi tashabbuslar, qat'iy vazifalar qo'yilgani bejiz emas. Millionlab yoshlarimizni ruhlanitirish, qo'llab-quvvatlash, ilm-ma'rifatga, kasb-hunar va faol mehnatga rag'batlantirish davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga birdek jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

Iqtisodiyotimizning yanada tez sur'atlar bilan o'sib, imkoniyatlarimiz kengayishida yoshlarning hissasi, ahamiyati ortib borishi muhim. Buning uchun, avvalo, hududlarda va sohalarida yoshlar bilan tizimli muloqot qilish, ularni tushunish, tinglash, taklif-tashabbuslariga yo'l ochib berish kerak. Uchrashuvda mazkur yo'nalishda ikkita masalaga e'tibor qaratildi.

Birinchidan, viloyat, tuman hokimlari har bir bolaga o'z farzandidek qarab, sog'lig'i, o'qishi, yurish-turishi, qiziqish va orzulari, muammolaridan doim xabardor bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yoshlarga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan axborotlar, turli voqea-hodisalar ko'paygan zamonada ular bilan yaqin muloqot qilishning ahamiyati katta. Buni oilamiz, farzand va nabiralarimiz misolida har birimiz yaxshi anglaymiz, albatta.

Yoshlar bilan doimiy muloqot platformasi yo'lga qo'yilishi, maktab, oliyog'oh, o'quv va kasb markazlari, tadbirkorlarning boshini qovushitirib, yoshlarga ko'maklashadigan tizim qilinishi natijalar yaxshilanishiga, hududlarda ijtimoiy muhit izchillashishiga,

asosiysi, yigit-qizlarda qat'iyat va faollik kuchayishiga zamin bo'ladi.

Buning yana bir muhim jihati, jamiyatimizda qanday oilada, qanday ijtimoiy vaziyatda bo'lishiga qaramay, yigit-qizlarni tinglash, ularga teng imkoniyatlar yaratish, bir xil ko'z bilan qarash ko'nikmasi rivojlanadi. Xalq demokratik partiyasi uchun yoshlarning huquq va imkoniyatlarini tengligiga erishish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Ikkinchidan, yoshlarning o'zaro bir-birini tushunishi, doimiy muloqotda bo'lishi, yangi imkoniyatlar sari birgalikda intilishi dolzarb masala. 9 mingdan ziyod mahallalarda yoshlar yetakchilari tayinlangani bu borada zarur ijtimoiy institut vazifasini bajarmoqda.

Ammo tan olish kerak, bu institutni yanada rivojlantirish, qamrovini kengaytirish, ayniqsa, hayotga, yoshlarning kundalik turmushiga yaqinligini oshirish zarurati ham bor. Ularning maktab, texnikum, talim va kasb markazlari bilan ham ishlashi real yaqinlik hamda o'zaro bog'liqlikni oshiradi.

Dunyoning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy muhiti barcha sohada mezonlar o'zgarayotgani, talab va raqobat oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Yoshlarimiz ana shu mezonlarga mos ilm olishi, hunar o'rganishi, samarali mehnat qilib, natijalarga erishishiga ko'maklashish davlatning, hammaimizning burchimizdir.

**Ulug'bek INOYATOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi  
O'ZXP fraksiyasi rahbari.

## DOIMO E'TIBOR MARKAZIDAGI MASALA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvlari doimo kelajakimiz egalari hayotida tub burilishlar yasashga qodir bo'lgan yangiliklar, taklif va tashabbuslar, innovatsion loyihalar e'lon qilinishi bilan muhim ahamiyat kasb etishi an'anaga aylangan. Shu bois bunday uchrashuvlar nafaqat yoshlar, balki ularning ota-onalari tomonidan ham katta muvaffaqiyat va imkoniyatlar kaliti sifatida qabul qilinadi.



Bu safar ham shunday bo'ldi. 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimizning yoshlar bilan navbatdagi uchrashuvida bir guruh yigit-qizlarga davlat mukofotlari topshirildi. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi tashabbuslar ilgari surildi, mamlakatimizning ertangi kunini belgilovchi g'oya va yechimlar taqdim etildi. Yoshlarning innovatsiya, "yashil" iqtisodiyot, kreativ sanoat, tadbirkorlik va IT sohalaridagi ilg'or ishlanmalari va yutuqlari bilan tanishildi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatiga eng ustuvor masala sifatida qaralayotgani bejiz emas. Yurtimiz haqiqiy ma'noda yoshlar mamlakati – aholining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Shu jihatdan yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini, jamiyatimizni harakatlantiruvchi katta kuch, islohotlarimiz drayveri. Bugun yurtimizda qanday o'zgarishlarga qo'l urilmasin, avvalo, yoshlarning kuch-gayrati, azmu shijoati, zakovatiga tayanilyapti.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda so'nggi yetti-sakkiz yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va salohiyatini ro'yog'ba chiqarishda "katta sakrash davri" bo'ldi. Buning isbotini o'tgan yillarda yoshlarga oid 100 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganida ham ko'rish mumkin. Yoshlarga har sohada berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarining esa chek-cheGARasi yo'q va bu xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Mana isboti: O'zbekiston BMT "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez

sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi. Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi. Shu kunlarda yurtimizda o'tkazilayotgan Global yoshlar festivalida 30 dan ortiq davlatlardan kelgan 300 dan ko'p yoshlar, 10 dan ziyod nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashmoqda.

Hech kimga sir emas, aksariyat rivojlangan davlatlarda aholi, ya'ni yoshlar soni kamayib boryapti va bu o'ziga yarasha iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni paydo qilyapti. Ana shunday bir sharoitda O'zbekiston mehnatga layoqatli aholining ko'pligi nuqtayi nazaridan nufuzli davlatga aylanayotgani e'tiborga molik. Mamlakatimiz aholisi 2040-yilga borib 50 millonga yetishi, jamiyatning yarmidan ko'pinin yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda. Albatta, bu barchamizga o'ziga yarasha katta mas'uliyat ham yuklaydi. Ya'ni yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, umuman, har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi faqat davlatning emas, har birmizning eng asosiy vazifamizga aylanmog'i lozim.

Zero, har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti, jadal rivojlanishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha mamlakatda yoshlarga berilayotgan e'tibordga ko'rinadi. Demak, biz, deputatlarning ham yoshlarga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish, zamon talablariga moslash, eng asosiysi, bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlarining ijrosini ta'minlash doimo e'tibor markazimizda bo'ladi.

**G'ozal SAMIYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,  
"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi.

## QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



### Bugundan boshlab qonunchiligimizga ko'ra:

■ Pensiya va nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lovlari **10 foizga** oshiriladi.

\*\*\*

■ Yangi tashkil etiladigan ta'lim tashkilotlari faoliyati **2 bosqichda** yo'lga qo'yiladi:

● 1-bosqichda faoliyatni boshlash uchun o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari o'rnatilgan tartibda litsenziyalanadi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini xabardor qilish tartibida tashkil etiladi;

● 2-bosqichda ta'lim tashkilotlarining kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

\*\*\*

■ Jonli ijroda tashkil etiladigan konsert-tomoshma tadbirlari bo'yicha reklamalarni O'zbekiston MTRK tizimidagi teleradiokanalarda e'fira berish uchun tadbir tashkilotchisiga **30 foiz** miqdorida chegirma beriladi. Shuningdek, har chorakda respublikaning barcha hududida "Jonli ijro haftaligi" o'tkaziladi.

\*\*\*

■ "Ijtimoiy himoya yagona reestri" hamda "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan shaxslarga belgilangan tovarlar (xizmatlar)ni xarid qilishda to'langan **QQS summasi 1 ish kunida** qaytariladi.

\*\*\*

■ Aholi uy-joylarining energiya auditini o'tkazish xarajatlari hamda quyosh panellari va geliokollektorlar qiymatining **20 foizi** va issiqlik nasoslari qiymatining **40 foizini** qoplash uchun Energiya samaradorligi milliy agentligi tomonidan subsidiya ajratiladi. Biroq ushbu miqdorlar BHMning 50 baravaridan oshmagan qiymatda qoplanadi.

\*\*\*

■ 2028-yil 1-yanvargacha "Birinci imkoniyat" tamoyili joriy etiladi. Bunda birinchi faoliyat yili davomida savdo va tadbirkorlik sohalariga oid ma'muriy huquqbuzarlikni ilk bor sodir etgan kichik tadbirkorlik subyektlari ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

\*\*\*

■ Fuqarolarga davlat pensiyalari va kompensatsiyalarni tayinlashning soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi.

Bunda fuqarolarga I yoki II guruh nogironligi belgilanganda pensiyalar alohida murojaat talab etmasdan proaktiv shaklda tayinlanadi. Shuningdek, fuqaroga proaktiv shaklda tayinlangan pensiyalarni rad qilish huquqi beriladi.

\*\*\*

■ "Ekofaol fuqaro" platformasiga o'zi ekan daraxti to'g'risida ma'lumotlar kiritgan kambag'al oilalar a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan har **100 ta daraxt uchun** BHMning 1 baravari miqdorida subsidiya ajratiladi. Bunda subsidiya yil davomida ikkiga bo'lib (ko'chatlar ekilgan vaqt da hamda ularni parvarishlash davridan keyin) teng ulushlarda to'lanadi.

\*\*\*

■ 2028-yil 1-yanvargacha kichik va o'rta biznes subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga moratoriy e'lon qilinadi.

Manba: "Huquqiy axborot" rasmiy telegram sahifasi.

Shu yil 1-sentyabrda YTTlarga zargarlik buyumlarini sotish faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi.

Raqamli dunyoda O'zbekiston:
YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning
jadal rivojlanishi mamlakat istiqboli uchun yangi
imkoniyatlar eshigini ochdi. Hukumat tomonidan
raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan
sa'y-harakatlar, shubhasiz, ijobiy natijalarni
bermoqda.

Nuqtai nazar

Iqtisodiyotning yangi
tizimi

Ochig'i, islohotlar muvaffaqiyatini
ta'minlovchi muhim yo'nalishlardan
biri iqtisodiyotni raqamlashtirishdir.

Mutaxassislar ta'kidlashicha,
raqamli iqtisodiyot noldan boshlab
yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir
boshqacha iqtisodiyot emas.

2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan
Yangi O'zbekistonda taraqqiyot
strategiyasida raqamli iqtisodiyotni
asosiy drayver sohaga aylantirib,
hajmini kamida 2,5 baravar oshirish
va eksportini 500 mln. dollarga
yetkazish maqsadi belgilangan.

Chunonchi, taraqqiy etgan davlatlar
qatoriga qo'shilib kelish uchun,
avvalo, ilg'or zamonaviy axborot-
kommunikatsiya, internet hamda
raqamli texnologiyalar sohasidagi
bilimlarni chuqur egallash orqali
yüksalishning eng qisqa yo'lidan
borish kerak.

Yana bir muhim jihat,
mamlakatimizda aholi eng ko'p
to'qnash kelayotgan sohalarni
raqamlashtirish, odamlarning og'irini
yengil qilishga ustuvorlik berilyapti.

Tizimli yondashuv -
samaradorlik omili
Raqamlashtirishning kundalik
hayotimizda doimiy o'rin egallashi
uchun tizimli yondashuv lozim.

Mutasaddirlarga sun'iy intellekt
asosida ishlaydigan loyihalar
sonini 100 taga, dasturiy
mahsulotlar va xizmatlar hajmini
50 mln. dollarga yetkazish vazifasi
qo'yilgan.



oid dasturlar xalqimiz, qolaversa,
tadbirkorlarimiz xohish-istaklarini to'g'ri
anglash imkonini beradi.

Biroq ayrim muammolar bor,
ularning yechimini qisqa fursatda
hal qilish lozim. Birinchidan,
raqamlashtirish "ma'lumotlar
ombori"dir, ular juda katta hajmdan
iborat. Ulkan ma'lumotlar oqimini
saqlash va qayta ishlash bo'yicha
turi platformalarni kengaytirish zarur.

Prezidentimizning 2021-
yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt
texnologiyalarini jadal joriy etish
uchun shart-sharoitlarni yaratish
chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
mamlakatimizda bu boradagi
innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari
va sohalariga joriy etish uchun zarur
shart-sharoitlarni shakllantirishda
muhim qadam bo'ldi.

Keyingi yillarda hayotning turli
jabhalarida sun'iy intellektni qo'llash
kengaymoqda. Shunday texnologiya
asosida 20 dan ortiq loyihalar ishga
tushdi. Tarmoq va yirik korxonalar
bo'yicha yana 70 ta loyiha ishlab
chiqildi. Sun'iy intellektga tayyorlik
xalqaro indeksida O'zbekiston 17
pog'onaga ko'tarildi.

Uzun yillarga e'tiborning davomi
sifatida O'zbekiston Prezidentining
2024-yil 14-oktyabrdagi qarori bilan
Sun'iy intellekt texnologiyalarini
2030-yilga qadar rivojlantirish
strategiyasi qabul qilindi. Unda sun'iy
intellektga asoslangan dasturiy
mahsulotlar va xizmatlar ulushini
ko'paytirish, texnik infratuzilmani
kengaytirish, kadrlar salohiyatini
oshirish kabi qator chora-tadbirlar
belgilangan.

Buxoro, Farg'ona va Toshkent
viloyatlarida "bulutli" ma'lumotlar
markazi ishga tushirildi. Startaplarga
sharoit yaratish uchun Toshkent
axborot texnologiyalari va Inxa
universitetlarida sun'iy intellekt
bo'yicha laboratoriyalar ochildi. Davlat
idoralarning 3 ming nafar xodimi,
hokimlar va o'rinbosarlarining bu
borada malakasi oshirildi.

bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Xizmatlar sifati va
ko'lamini sezilarli oshirdi. Raqamli infratuzilma
sezilarli kengaydi.

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni
yil sayin ortib bormoqda. Mobil aloqa va internet
tarmoqlarining qamrovi kengayib, aholining raqamli
xizmatlardan foydalanish imkoniyati oshmoqda.

o'shdi. "O'zbekiston pochta"si" tizimida
ham o'zgarish bor. O'tgan yili
tushumlar 1,4 baravar, eksport 20 foiz
oshgan. Yangi turdagi xizmatlar joriy
qilingani natijasida jo'natmalar soni 50
foiz ko'paygan.

Mamlakatimiz mintaqaviy
"IT-NUB"ga aylanadi

Soha uchun muhim asos -
telekommunikatsiyalar to'g'risidagi
qonun yangi tahrirda qabul qilindi.
Endi bunga tayanib, barcha tarmoq
va hududlar kesimida raqamlashtirish
bo'yicha ikki yillik dastur ishlab
chiqilishi belgilandi. Jumladan,
2025-yilda 6 mingta yangi tayanch
stantsiya quriladi. 30 ming kilometr
optik tolali kabellar tortilib, qamrovi 98
foiz bo'ladi. Soha eksportini 1,2 mlrd.
dollarga yetkazish choralarini ko'riladi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida
mamlakatimizni mintaqaviy "IT-NUB"ga aylantirish
vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo'lida raqamli
texnologiyalar bosqichma-bosqich rivojlantirib
kelinmoqda. Barcha hududlarda IT-parklar
tashkil etilib, bu sohada o'qish va ishlash uchun
imkoniyat kengaydi. Internet tezligi va qamrovi oshdi.
190 mingdan ziyod aholi ishli bo'ldi.

faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga
kelib, ularning soni 650 tani tashkil
etdi. Tabiiyki, bugun IT-parklarda
minglab yoshlar ishlayotgani, "Bir
million dasturchi" loyihasi doirasida o'qib
chiqqan yigit-qizlar soha kelajagi uchun
mustahkam paydevor yaratayotgani
barchamizni mamnun etadi.

Raqamlashtirish haqida gap
ketganda, elektron tijoratning
o'sayotgani mavzuiga ham to'xtalish
joiz. Internet orqali xarid qilish va
xizmatlardan foydalanish ommalashib
borayotgani, mahalliy onlayn
do'konlar va marketpleyslarning
soni ortib, iste'molchilar uchun keng
tanlov imkoniyati yaratilayotgani,
elektron tijorat sohasini qo'llab-
quvvatlash uchun qonunchilik bazasi
takomillashtirilayotgani mamlakatimizda
soha rivoji tobora yuksalib borayotganini
namoyish etadi.

Hech ikkilanmasdan aytish
mumkin, raqamlashtirish sohasidagi
izlanish va intilishlarni davom ettirish
zarur. U bizning nufuzli davlatlar
safidan o'rin olishimiz kafolatidir.

Raqamlashtirish
istiqbollari

Raqamlashtirishda AQSHning
yuksak natijalarga erishayotgani
sabablaridan biri mamlakatda IT
industriyasi rivojlanganidir.
AKT bo'yicha jahonning yetakchi
kompaniyalari ushbu mamlakatda
joylashgan. Masalan, "Amazon",

xizmatlarini raqamlashtirish aholi va
tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik
yaratishga xizmat qilmoqda. Yagona
interaktiv davlat xizmatlari portali (my.
gov.uz) orqali 300 dan ortiq elektron
xizmatlardan foydalanish imkoniyati
yaratildi. Bu esa davlat organlariga
murojaat qilish vaqtini qisqartirib,
byurokratik to'siqlarni bartaraf
etishga yordam bermoqda. Davlat
boshqaruvida elektron hujjat aylanishi
tizimining joriy etilishi qog'ozbozlikni
kamaytirib, boshqaruvi jarayonlarining
tezkorligini oshirdi.

Aholining internetdan foydalanish
imkoniyatini kengaytirish uchun optik
tolali aloqa liniyalari qurish, mobil
aloqa tarmoqlarini takomillashtirish va
Wi-Fi zonalarini tashkil qilish bo'yicha
ishlar davom ettirilayotir. Raqamli
texnologiyalar sohasida malakali
kadrlar tayyorlash maqsadida oliy
o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlarda
IT mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim
sifatini oshirishga e'tibor qaratilayapti.

Raqamlashtirish jarayonida
raqamli tengsizlik, kibernetika,
raqamli savdonlikning pastligi
kabi muammolarni ham mavjud. Bu
muammolarni hal etish uchun zarur
va tegishli choralarini ko'rish maqsadga
muvofiq, albatta. Xususan, raqamli
infratuzilmani chekka hududlarda
rivojlantirish, aholining internetdan
foydalanish imkoniyatini kengaytirish,
aholining raqamli texnologiyalardan
to'g'ri va samarali foydalanish
ko'nikmalarini shakllantirish,
IT sohasida yangi texnologiyalar,
innovatsiyalarni yaratish va joriy etish,
ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash,
startap loyihalarini moliyalashtirish va
innovatsion faoliyatni rag'batlantirish
eng muhim vazifalardan sanaladi.

Shuningdek, YAImda raqamli
iqtisodiyot ulushini, unga kiritiladigan
investitsiyalar hajmini oshirish,
elektron savdoni rivojlantirish ham
davr talablaridan biri. Va nihoyat,
raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini
yaratishda davlatning o'rmi va roli
oshib borishi lozim. Chunki bunday
ulkan loyihani bir necha kompaniya
bilan amalga oshirib bo'lmaydi.
Uni faqat davlatning yetakchiligida,
kuchli tadbirkorlik va innovatsion
yondashuv orqali xususiy biznes,
jumladan, chet el investitsiyalarining
kuchi va imkoniyatlaridan foydalanib
amalga oshirish mumkin. Bunda
davlat va xususiy sheriklik
tamoyilining ahamiyati katta.

Yangi O'zbekistonni barpo etish
yo'lida raqamlashtirish va zamonaviy
axborot texnologiyalarini keng joriy
etish - mamlakatimiz iqtisodiyotini
diversifikatsiya qilish, boshqaruvi
tizimini takomillashtirish va aholining
turmush darajasini oshirishning
muhim omili. So'nggi yillarda bu
borada keng ko'lamli islohotlar amalga
oshirildi va sezilarli natijalarga erishildi.
Masalan, davlat boshqaruvidagi
raqamlashtirishni o'laldek. Davlat

Shuningdek, YAImda raqamli
iqtisodiyot ulushini, unga kiritiladigan
investitsiyalar hajmini oshirish,
elektron savdoni rivojlantirish ham
davr talablaridan biri. Va nihoyat,
raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini
yaratishda davlatning o'rmi va roli
oshib borishi lozim. Chunki bunday
ulkan loyihani bir necha kompaniya
bilan amalga oshirib bo'lmaydi.
Uni faqat davlatning yetakchiligida,
kuchli tadbirkorlik va innovatsion
yondashuv orqali xususiy biznes,
jumladan, chet el investitsiyalarining
kuchi va imkoniyatlaridan foydalanib
amalga oshirish mumkin. Bunda
davlat va xususiy sheriklik
tamoyilining ahamiyati katta.

O'zbekiston raqamli dunyoga integratsiyalashuv
yo'lida sezilarli yutuqlarga
erishdi. Ayni chog'da hali sohada
yechimini kutayotgan muammolar ham
mavjud. Raqamli tengsizlikni kamaytirish,
kibernetika, raqamli savdonlikni
oshirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish
va innovatsiyalarni rag'batlantirish
orqali O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini
yanada rivojlantirish va aholi farovonligini
oshirish mumkin. Muhimi, bu yo'lida
dadil qadamlar tashlanmoqda.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Sport
"Shunqorlar - 2025":
BU SAFAR G'OLIBLIK
KIMGA NASIB ETDI?
26 - 28-iyun kunlari "Yoshlar oyligi" doirasida
O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi raisi kubogi
uchun "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlarining respublika
bosqichi o'tkazildi.



Mazkur o'yinlarni
uyushtirishdan asosiy maqsad
yoshlarni Vatanga sadoqat va
yüksak harbiy-vatanparvarlik
ruhida tarbiyalash, chaqiriqqa
qadar yoshlarning Qurolli
Kuchlar safida xizmat qilishga
qiziqishini oshirib borish hamda
ularni ruhan va jismonan
chiniqtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti
matbuot xizmati xabariga ko'ra,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-
muhandislik bilim yurtida
tashkil etilgan "Shunqorlar"
harbiy-sport o'yinlarining final
bosqichida Qoraqalpog'iston
Respublikasi, Toshkent
shahri va viloyatlaridan 14 ta
jamoa uchta blokdan iborat
sinovlardan o'tkazildi.

Xususan, "Harbiy-
vatanparvarlik blokida" jamoa
a'zolarining O'zbekiston
tarixiga doir bilimlari
sinovdan o'tdi. Shuningdek,
"Saf qo'shigi" va "Biz - bir
jamoamiz" ko'rik-tanlovlari
o'tkazildi. "Harbiy-amaliy
ko'pkurash blokida" jamoalar
pnevmatik qurolidan o'q o'tish,
o'quv granatagini uzoqlikda
uloqtirish va harbiylashtirilgan
estafeta bo'yicha bellashdi.

Yakunda g'oliblik va faxrli
o'rnlarni qo'lga kiritgan
jamoa a'zolari diplom va
qimmatbaho sovg'alari bilan
taqdirlandi. Shuningdek,
uch kun davomida sport
musbogaalarida belgilangan
natijalarni qo'lga kiritib,
Yagona sport tasnifining
me'yori talablarini bajaragan
6 nafar yigit va qiz uchinchi
darajali sport razryadiga ega
bo'ldi.

"Xalq so'zi".

Ekstremal turizm

Urgutda havo sharlari
festivali

Betkor tabiati bilan mashhur Urgut tumanidagi
Bahrin mahallasida ilk bor havo sharlari festivali
o'tkazildi. Bundan ko'zlangan maqsad Samarqand
viloyatida turizmni yanada rivojlantirish va
hududning jozibador sayohlik maskani sifatidagi
o'rini mustahkamlash, ekstremal turizm turlarini
ommalashtirishdir.



Sayyohlar mahalliy aholiga ko'tarinki ruh va o'z-gacha
kayfiyat bag'ishlagan festivalda 25 ta rang-barang havo
shari osmonga ko'tarildi. Bu manzara yurtimizning
tinchligi, mehmondostligi va zamonaviy taraqqiyot sari
intilishini ifodalaydi.
- Havo sharlari festivaliga oilamiz bilan keldik, - deydi
urgutlik Hasan Yangiboyev. - Avvallari yirik-yirik shaharlar
yoki chet davlatlarda uchirilgan havo sharlarini televideniye va
ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'p tomosha qilganmiz. Ammo buni
o'z ko'zining bilan ko'rishning gashiti boshqacha ekan. Qarang,
minglab tomoshabinlar bir o'lama taassurot olmoqda, ayniqsa,
farzandlarimiz qonunchi cheksiz. Bunday tadbirlar tez-tez
o'tkazilib turilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ikki kun davom etgan festival doirasida havo sharlari shousi,
konsert dasturi, gastronomik ko'rgazma, turli musobaqa va
milliy o'yinlar uyushtirildi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

Hindistonda O'zbekistonning investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy salohiyati taqdim etildi.

Advertisement for "Xalq so'zi" newspaper, featuring contact information, subscription rates, and a QR code for more details.